

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid
tushunchalarni shakllantirish” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **O'rozova Mehriniso**_____

ILMIY RAHBAR:

p.f.d.prof. Olimov Q.T._____

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “____” _____2013 yil

TERMIZ – 2013

Reja

Kirish.

I-BOB. Boshlang'ich ta'lim mazmuni va unda mehnat ta'limi darslari.

I.1. DTSlari va o'quv rejalari asosida mehnat ta'limi darslarini rejalashtirish mazmuni .

I.2. Boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarning mavjudlik xolati.

II-BOB. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirishning shakl va usullari.

II.1. O'quv mashg'ulotlari orqali ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish shakllari.

II.2 Mehnat ta'limi bo'yicha to'garaklarda ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish usullari.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

K I R I S H

Mavzusining dolzarbligi. Shaxs ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish hamda rivojlantirishda pedagogik-psixologik jihatdan ulkan imkoniyatlar mavjud bo‘lib, uning ro‘yobga chiqishida nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyat ijodkorlik talab etadi. Bu borada 3-4 sinf mehnat ta'limi bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni ijodkorlik faoliyatida islab chiqarishga oid tushunchalarni rivojlantirish uni tashkil etish ko‘p qirraliligi hamda murakkab kompleks tuzilmaga egaligi bilan o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Pedagogik kuzatishlardan ma'lumki, o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatida islab chiqarishga oid tushunchalarni rivojlantirishning muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu ma'noda, o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatiga rahbarlik qilishga tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviyati va ijodkorlik madaniyatini boyitish ko‘p jihatdan o‘qituvchida shakllangan ijodkorlik sifatlariga bog‘liq. Har qanday ijodkorlikka, ayniqsa, ijodkorlikiy yo‘nalishdagi ijodkorlikka rahbarlik qilish o‘qituvchidan mukammal ijodkorlikiy bilim va malakalarni talab etadi.

O‘quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash uchun, eng avvalo, uning maqsadlarini belgilab olish zarur. Ushbu strategik tizim o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- doimo o‘quvchilar e'tiborini masalani hal qilishda kullanilgan usulning universalligi, hammabopligiga qaratish. Buning natijasida o‘quvchilar mashg‘ulotlarda ma'lum vaziyatga nisbatan kullanilgan metodni yangi hodisalarga tatbiq qilib, yangi qonuniyat va yechimlarni izlashga odatlanadilar;

- o‘quvchilarni ijodkorlik metodlariga o‘rgatishni dars maqsadi sifatida emas, balki darsda qo‘yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo‘l, imkoniyat sifatida qarilishi taqozo etiladi. Muammo yechimini topishga qaratilgan vazifalar o‘rganilayotgan tizim tarkibi va undagi jarayonlarni tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Shu sababli masalani hal etishdan kutilgan maqsadni va uni

amalga oshirishdagi vazifalarning to'g'ri belgilanishi muammoni darhol hal etishga qaratilgan intilishlardan ko'ra ko'proq naf keltiradi;

- o'quvchilar o'zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar ijodkorlik darslarinining asosiy «mahsuli» hisoblanadi. Biroq, faqatgina masalaning yangi yechimini topish ijodkorlik faoliyatining so'nggi bosqichi bo'lib qolmasligi kerak. O'quvchilar o'z g'oyalarini «oxiriga yetkazish»ni o'rganishlari, ya'ni yangi yechimni sinab ko'rish, asoslash va tadbqiq qilishga oid ma'lum ko'nikmalarni egallashlari ijodkorlikni «xayollar» darajasidan amaliy bosqichga ko'tarish zarur asosni yuzaga keltiradi. Mazkur mulohazaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u o'quvchilarning bo'lajak ijodkorlikiy faoliyatida yuqori faollik darajasini ta'minlashga va pirovardida turli fan sohalarida chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi bo'lajak olimlarni tarbiyalashga zamin tayyorlaydi;

- ijodkorlikni yo'lga qo'yishning muhim jihati – axborotlarni yig'ish, tahlil va talqin qilish bilan bog'liq bo'lib, busiz har qanday ijodkorlik metodi o'z ahamiyatini yo'qotadi. O'quvchilarda axborotlar bilan ishlashga oid dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishda ularni o'z qiziqishlariga o'qituvchi Internet materiallari, fotosuratlar, ilmiy va ommabop maqolalar va h.k.larni yig'ish, saralash va tizimga keltirish ishlariga jalb metodlaridan keng foydalanish mumkin;

- ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarining juda muhim, qamrovi jihatidan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlardan ham tashqariga chiqadigan masala - shaxs ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir. Odatda buyuk olim va ixtirochilar to'g'risida so'z yuritilganda o'quvchilar «Ulug' allomalargina shu qadar yuksak yutuqlarni qo'lga kiritganlar, bizlar bo'lsak oddiy odamlarmiz», - deb o'zlarini urintirishdan saqlamoqchi bo'ladilar. Bu tushunchani yengishning muhim yo'nalishlaridan biri turli hayot yo'liga ega bo'lgan taniqli ijodkor shaxslar biografiyasi bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirib borish bog'liq bo'lib, bunda so'z yuritilayotgan shaxs hayotining barcha jabhalari ro'y-rost bayon qilinishi lozim bo'ladi. Mazkur metodning asosida ilm-fandagi yuksak

yutuqlarga unga intilgan har shaxs erishishi mumkinligi to'g'risidagi g'oyani o'quvchilar ongiga singdirish talabi yotadi.

Jumladan, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlardan tasviriy san'at, matematika, mehnat ta'limi, atrofimizdagi olam, yo'l harakati qoidalari kabi fanlardagi chizma, o'zaro almashunuvchanlik texnikaviy o'lchashlar, konstruksion materiallar texnologiyasi, mashina detallari, texnika taraqqiyotining istiqbollari, kabi fanlarni o'qitishda o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq o'quv topshiriqlaridan keng foydalanish mumkin.

Bizni qurshab turgan predmetlar olamining mohiyatini bilib olishdan iborat murakkab ilmni o'zlashtirish aynan maktab partasidan boshlanmog'i lozim. Shuning uchun ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da yosh avlodga ta'lim berish va ularni tarbiyalashni yaxshilash masalalariga katta e'tibor berilganligi bejiz emas.

O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yo'nalishlarini shakllantirishda va demokratik, insonparvarlik jamiyatini qurishda xalq ta'limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'limni yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat ijodkorlik etadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mazkur yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda umumta'lim maktablarida amalga oshirishning maxsus metodlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat ijodkorlik etadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarda umumta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mehnat ta'limi mashg'ulotlarga ishlab chiqarishga oid tushunchalarni inobatga olib, biz tadqiqotimiz mavzusini « **Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish** » deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirishning mazmunini, shart-sharoitlarini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari :

1. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslari bo'yicha o'quvchilarda ishlab chiqarishga oid tushunchalarni rivojlantirishning o'rni va ahamiyati, ularni tashkil qilishning hozirgi ahvolini tahlil qilish.
2. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslari bo'yicha o'quvchilarda ishlab chiqarishga oid faoliyatini rivojlantirish va shakllariga kuyiladigan zamonaviy talablarni belgilash.
3. Pedagogik amaliyot jarayonida o'quvchilarning ishlab chiqarishga yo'naltirishning samaradorlik darajasini aniqlash va ularning yangi pedagogik texnologiya tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirishni rivojlantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish mazmuni.

Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili

a) Mehnat tarbiyasi to'g'risida qomusiy mutafakkirlarimiz Ibn Sino, Farobiy, Naqshbandiy, Kaykovus, A.Navoiy, Termiziy kabi allomalarimiz o'z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug'lab, yoshlarni mehnat qilishga, mehnatning inson faoliyatida o'rni haqida fikr bildirishgan.

Respublikamizda mehnat ta'limi uning taraqqiyotiga ko'pgina olimlar A.Varobev, N.Shodiev, E.Choriev, N.Nishonaliev, O.M.Ma'zumov, R.Mavlonova, O.Magdiev, K.Davlatov, U. Tolipovlarning darslik va metodik qo'llanmalari chop etilgan. Boshlang'ich ta'lim yunalishida Mavlonova R, Egamov X, Pereverten G, Sanaqulov X, Shmulevich G. va boshqalarning darsliklar, qo'llanmalar mavjud lekin tajribadan ma'lumki ko'pgina o'qituvchilar aynan o'quvchilarga mehnat tarbiyasi oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar sirasiga kirgan to'garaklarni tashkil qilishga oid kam.

b) bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi mavzu mavzu bakalavriyatning boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha ilk bor bitiruv malakaviy ish sifatida shakllantirilgan.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, metodik adabiyotlarni o'rganish; o'quvchilarni to'g'arak mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ilg'or tajribalarni o'rganish kuzatish, qiyoslash, umumlashtirish, suhbat, anketa, test, o'zlashtirishni nazorat qilishning reyting tizimi; pedagogik tajriba-sinov; tahlil qilish va umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, 2 bob, 4 ta paragraf umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi betni tashkil etadi.

I-BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNI VA UNDA MEHNAT TA'LIMI DARSLARI.

I.1. DTSlari va o'quv rejalari asosida mehnat ta'limi darslarini rejalashtirish mazmuni .

Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkiliy shakllarini o'qituvchilar o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari hamda mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda tanlash. Mehnat tarbiyasini yo'lga qo'yishda shunday shakl va metodlardan foydalanish lozimki, natijada mehnat insonning eng sevimli mashg'ulotiga aylansin, shaxs mehnat ta'lim va tarbiyasi yuqori o'ringa qo'yilishi lozim, oqibatda shaxs qo'lga kiritilgan mehnat muvaffaqiyatidan quvonish, o'z qadr qimmatini anglash hamda o'z mehnatdan g'ururlanishi to'g'risi qaror topsin.

Mehnat tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashish o'quvchilar tamonidan egallangan bilimlarni amoliyatda qo'llay olishlarini ta'minlashga olib keladi. Bugungi kunda mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham o'zgarmoqda, u o'zida taxnika va taxnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko'nikmasi hamda holatlarini ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o'rin tutadi. Mazkur tadbirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo'lib, shaxsni yo'naltiruvchi xususiyatga egadir.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosbatni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal etish talab qilinadi. Mehnat tarbiyasining tashkil etishda hal etuvchi vazifalar ko'p qirrali bo'lib, u o'quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayorgarlikning barcha tomonlarini qamrab oladi. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda quydagi vazifalar amalgam oshiriladi;

- Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaratib berish;

- Inson mehnati hamda mehnat maxsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarini qadirlash, asrab-avaylashga o'rgatish;
- Mehnat qilishga nisbatan rag'bat, shuningdek, muhabbatni uyg'otish;
- O'quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;
- Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;
- Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;
- Mehnatga xoyotiy zarurat, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
- Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;
- O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
- Muayyan ijodkorlik-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va hokozolar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quydagi yo'nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o'yindan ajralgan holda musaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o'zlashtirilishiga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolatini ta'minlash omil ekanligini, shaxsni qobilyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari, Yosh texniklar, yosh ixtirochilar, hashar, "mohir qo'llar" tanlovi, "Quvnoq shahar ustahonasi", o'quv ishlab chiqarish kombinatlari brigadalari, yordamchi xo'jalik, "Yosh radio – texniklar stansiyasi" va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek, ustoz – shogird an'analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi ijodkorlik-hunar ta'limi va boshqalar.

Mehnat tarbiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar maktabga kelgan daslabki kunlaridanoq o'zlarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos mehnat faoliyatiga jalb qilinadilar. Bunda ular o'z-o'ziga xizmat qilish borasidagi eng oddiy yumushlarni bajaradilar (chunonchi, sinf xonasi ozodaligini saqlash, o'quv qurollarini ta'mirlash, kitoblarni yelimlash, o'quv anjomlarini darsga tayorlash va hokozolar).

Mehnatga ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatni tashkil etish jarayonida intizomga bo'ysinish, maqsadni amalga oshirish yo'lida shijoat, qat'iyat ko'rsatish, axloqiy-irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda jamoa asosidagi mehnatni uyushtirish muhim masasalardan biridir. Zero jamoa ishtirokida o'kazilayotgan mehnat jarayonida o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam va hamkorlik, jamoa mehnat samaralaridan quvonish kabi xislatlar tarbiyalanib boradi. Shuningdek, ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mehnatga ijodiy yondashish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish singari ahloqiy sifatlarning shakllanishiga poydevor kuyiladi.

Mehnat jarayonida o'quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati- bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'satkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining musaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishini ham aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganligining dastlabki davrlaridanoq Jahon taraqqiyotida muhim o'ringa ega milliy ma'naviyatimiz asosida Ozod va obod Vatan, erkin va farovon qayot barpo etish bosh maqsad etib belgilandi. Ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy e'tibor yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali ijodkorlik egasi qilib

tarbiyalashga qaratilganligi milliy an'analarimiz, mentalitetimizning o'ziga xos ifodalanishidir. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan taklif etilgan va respublikamizda izchil amalga oshirib borilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modeli bugungi kunda Jahon miqyosida e'tirof etildi va o'zining dastlabki natijalarini bermoqda.

Biroq, qayd etilgan yutuqlar bilan birga, ijodkorlikiy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun to'laqonli xizmat qilmayotgan sohalar ham mavjud. Jumladan, o'quvchilarning ijodkorlikiy bilim va ko'nikmalarini dars jarayonida shakllantirishga bir hadar e'tibor qaratilayotgan bir davrda, darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda tizimlilik, maqsadga yo'naltirilganlik yetarlicha o'z aksini topmay kelmoqda.

- Jumladan, E.T.Choriev o'quvchilar mehnatini tashkil etish, qishloq maktablarida mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlarini yoritib bergan. Shuningdek, u o'z ishlarida mehnat tarbiyasi shaxs fazilatlarining shakllanishida yetakchi o'rinni egallashini ko'rsatib, masalaga ijodiy yondashish yo'llarini yoritgan. E.T.Choriev qishloq maktablarida mehnat tarbiyasining usul va metodlarini yaratishda ishlab chiqarish jamoasining o'rnini, mehnat tarbiyasini R.Mavlonova o'zining qator izlanishlarida boshlang'ich sinflardagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni, mehnat ta'limi va ijodkorlikga yo'naltirish mazmunini takomillashtirish borasidagi tadqiqot natijalarini bayon qilgan. Ana shu izlanishlar asosida u I- IV sinflar uchun darslik va qo'llanmalar majmuasini yaratdi.

- K.Davlatov o'zining «Mehnat va ijodkorlik ta'limi, tarbiyasi hamda ijodkorlik tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar» nomli qo'llanmasida mustaqil va laboratoriya ishlariga doir materiallarni bayon etgan hamda vazifa va topshiriqlarni bajarish, masalalarni hal qilish, maktab o'quvchilarining mehnat ta'limi va ijodkorlikga yo'naltirish bo'yicha saviyasini oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish yo'llarini yoritib berdi. K.Davlatov va V.A.Chichkovlarning «O'quvchilarni ijodkorlik tanlashga yo'naltirish» nomli metodik qo'llanmasida to'garak

mashgʻuloti, sayohat, uchrashuv, kecha kabilarni uyushtirish va oʻtkazish yoʻllari yoritilgan.

- Mehnat ta'limi va ijodkorlik ta'limining muhim sohalaridan hisoblangan ijodkorlik tanlash, ijodkorliklarga havas uygʻotish, ijodkorliklarga yoʻnaltirish, oʻquvchilarni ijodkorlik tanlash ishlari boʻyicha darsdan, maktabdan tashqari ishlarni olib borish, ijodkorlikiy axborotlar uyushtirish, oʻquvchilarni ijodkorlik-hunarga tayyorlash hamda tadqiq etish Shodiev N.Sh ishlarida yoritilgan. Uning «Oʻquvchilarning darsdan va maktabdan tashqari ishlari» nomli monografiyasida kecha, toʻgarak, sayohat, uchrashuv kabilarni tashkil etish, oʻtkazish yoʻllari batafsil bayon etilgan.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda qoʻyilgan talablar yosh avlodni ijodkorlikga yoʻnaltirishning ilmiy va amaliy muammolari yechimini topishga qaratilgan tadqiqotlar faollashuviga sabab boʻldi. Bu boradagi tadqiqotlarning yosh avlodni ijodkorlik tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yoʻnalishlarini qayd etish mumkin:

oʻquvchilarning ijodkorliklar olamida yoʻnalish olishiga yordam beruvchi hamda oʻz individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish koʻnikmalari zarur darajasini ta'minlovchi ijodkorlikiy axborotlar tizimini yaratish;

- boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijodkorligiga yordam berish maqsadida shaxsni oʻrganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;

- oʻquvchilarga maslahatlar uyushtirishning nazariy va metodik asoslari;

- ijodkorlikni ijtimoiy ahamiyatli motivlarini asoslash;

- qishloq maktablarida oʻquvchilarni ijodkorlik tanlashga yoʻnaltirishning vosita va yoʻllari;

- bitiruvchi sinf oʻquvchilarini ishchi ijodkorlikga yoʻnaltirishning mazmuni, shakl va metodlari;

- O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish sharoitida o'quvchilarni ijodkorlik tanlashga yo'naltirishning pedagogik sharoitlari;

- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni ijodkorlik tanlashga yo'naltirish ishini boshharish xususiyatlari.

Bugungi qunda ijodkorlik tanlashga yo'naltirish ishlarining asosiy maqsadi - har bir o'quvchining shaxsiy sifatlariga, jamiyat talablariga hamda ijodkorlik talablariga mos keluvchi sohani ongli ravishda tanlash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi hal etilgan emas. O'quvchilarni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib ijodkorlik tanlashga yo'naltirish uchun zarur bo'ladigan shahar, tuman va boshqa hududiy muassasalarning mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida joriy va istiqbolli dasturlar ishlab chiqilmagan.

Respublikamiz ta'lim mazmuni tubdan isloh etilayotgan bugungi kunda o'quvchilarning texnik ijodkorlik mashg'ulotlariga kuyiladigan talablar ham yangi asoslarda qayta ishlanmoqda. So'nggi yillarda asosan yangi va takomillashtirilgan ko'rsatmali qo'llanmalar va ta'limning texnik vositalari, maktab ustaxonalari uchun texnologik moslamalar, homiy va otaliq korxonalarda xo'jalik hisobidan amalga oshiriluvchi tadqiqot ishlari doirasida amalga oshiriluvchi mavzular darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar texnik ijodkorligining ob'ektlari bo'lmoqda. Pedagog olimlarning fikrlarini tahlil qilib, tadqiqotimizning eksperiment natijalariga tayangan holda biz maktabda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni ijodkorlik-hunarga yo'naltirishda texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligining rivojlanishi o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy, mehg'nat, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi birligi asosida ularni milliy mafkuramiz asosida tarbiyalashga majmuaviy yondoshish g'oyalarini amalga oshirishda yordam beradi degan xulosaga keldik.

Bunda bizning tadqiqot ishimiz natijasiga ko'ra maktab pedagogika kengashi va o'quvchilar tashkilotlari ilmiy-texnik, tajribachilik, izlanish ishlarini rivojlantirishga umumiy rahbarlikni amalga oshirsa, mehnat o'qituvchisi ota-onalar va o'quvchilar faollari bilan hamkorlikda maktabda texnika to'garaklarini,

o'quvchilar mehnat birlashmalarining turli ijodkorliklarning ilg'or vakillari bilan uchrashuvlar, suhbatlar, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalariga sayohatlar tashkil qiladi. U sinf rahbarlari yordamida fan, texnika va ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlariga ko'proq qiziqadigan o'quvchilarni aniqlaydi hamda ularga tumanda, shaharda joylashgan maktabdan tashqari muassasalardagi o'ziga mos to'garakni topishda yordamlashadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'quvchilarni maktab fan, texnika va ishlab chiqarish haftaligini, mamlakatimiz fani va texnikasi taraqqiyotidagi tarixiy kunlarga bag'ishlangan maktab kechalarini tayyorlash va o'tkazishga jalb qiladi. Demak, taqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki o'quvchilarni darsdan tashqari vaqtlarida ijodkorlik-hunarga yo'naltirish ishlarini uyushtirishda mehnat o'qituvchisi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Albatta, u o'z faoliyatini dastlab ta'lim standartlari asosida olib borishi talab etiladi. Zero, mehnat ta'limining vazifalari Davlat ta'lim standartlari (DTS) va o'quv dasturida ifodalangan. Ushbu hujjatlarda maktabdagi mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi izchil ta'riflanib, uning mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirishdan, o'quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohalari asoslari bilan tanishtirishdan, o'qish va foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan, ongli ravishda ijodkorlik tanlashga va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iboratligi ta'kidlangan.

Darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligini rivojlantirish uchun mehnat ta'lim va tarbiyasining umumiy vazifalari yanada aniqlashuvi ularni quyidagi uchta guruhga birlashtirishni taqazo etadi.

***1** o'quvchilarda bilishga intilishni, texnik havaskorlikni va mazkur mintaqadagi texnika hamda ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlariga barqaror qiziqishni tarbiyalash;

***2** mahalliy fabrikalar, korxonalar, qishloq xo'jaligi sohasida, fan, texnika va ishlab chiqarishning taniqli mutaxassislariga chuqur hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

*3 o'quvchilarda hayotda mehnatga, o'qishga, mustaqil bilim olishga, birga yashaydigan kishilarga, o'rtoqlarga munosabatda, mahalliy ishlab chiqarishdagi eng hurmatli mutaxassislariga taqlid qilish ishtiyoqini tarbiyalash va rivojlantirish;

*4 kishilar mehnati natijalariga ongli munosabatni; isrofgarchilikka murosasizlikni, tabiatga tejamli munosabatni tarbiyalash, iqtisodiy va ekologik tarbiya;

*5 mehnatga ijodiy munosabatni, mahalliy ishlab chiqarishdagi ilg'orlarning mehnat usullariga, mahalliy korxonalardagi ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarining mavzular rejalariga, mazkur mintaq uchun yetakchi tarmoqlarda band bo'lgan ijodkorliklarga barqaror qiziqishni tarbiyalash; aniq ish o'rnida ishlashga ongli ehtiyojni oshirish;

*6 mahalliy korxonalar tarixiga, ishlab chiqarishda foydalaniladigan mashinalar va mexanizmlarning tarixiga, mahalliy ishlab chiqarishdagi ijodkorliklar tarixiga, mehnat faxriylariga hurmatni kuchaytirish.

*7 turli asboblardan, moslamalar, jihozlar va mashinalar bilan ishlashda mehnat mahoratini rivojlantirish va takomillashtirish;

*8 aniq ish o'rnida mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan texnik, ishlab chiqarish muammolarini topish va ularni hal etish ko'nikmasini tarkib toptirish va rivojlantirish;

Mana shu barcha pedagogik vazifalarni hal qilishda yosh tabiatshunoslar va yosh texniklar bilan olib boriladigan darsdan tashqari ishlar o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning umumiy tamoyillari asosida yo'lga qo'yilishi kerak. Shu bilan birga o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlardagi texnik ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligini tashkil etish yana qator o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ana shu xususiyatlarning biri darsdan tashqari mashg'ulotlarning barchasi maktabdagi ta'lim-tarbiyaning umumiy vazifalariga bo'ysunishi yuqorida aytilgan edi. Ularning boshqa bir xususiyati sho'qi, o'quvchilar ko'pincha ancha kuch va vaqtni talab qiladigan texnik ijodkorlik yoki qishloq xo'jalik tajribachiligida fan, texnika, ishlab chiqarishning biror tarmog'iga qiziqishlari tufayli vujudga kelgan

o'z xoqishlari bilan qatnashadilar. Shunga ko'ra, yuqoridagi olingan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib ixtiyoriy tashabbus o'quvchilarni darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodkorlik-hunarga yo'naltirishning eng muhim talablaridan biri deb hisoblaymiz.

O'quvchilar har qanday ish bilan qiziqib va berilib shug'ullansalar, g'oyat faollik va mustaqillik ko'rsata oladilar. Ana shu sifatlarni rivojlantirish bolalarda ijodiy tashabbuskorlikni tarbiyalashning zarur shartidir. Shuning uchun texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligini kengaytirishda o'quvchilarning mustaqilligiga, faolligiga, tashabbuskorligiga, jamoat tashkilotlariga tayanish yosh texniklar va tabiatshunoslar bilan amalga oshiriladigan ishlarning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Nihoyat, o'quvchilarning maktabdagi darsdan tashqari hamda maktabdan tashqari muassasalardagi mashg'ulotlarda o'z imkoniyatlari doirasidagi vazifalar bilan shug'ullanishi, yosh tashabbuskorlar ijodiy faoliyatining tavsifi ularning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi juda muhimdir.

Bugungi kunda, ta'lim-tarbiya muassasalarida o'qitilayotgan mehnat ta'limi va ijodkorlikga yo'naltirishda an'anaviy tartibdagi o'quv mashg'ulotlari, darsdan tashqari mashg'ulotlar sifati, mazmuni, tizimi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va mustaqil taraqqiyot talablariga javob bera olmay qoldi.

Kuzatish va tahlillarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi an'anaviy tizimdagi ijodkorlikga yo'naltirish ishlari jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim, metodlari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari talablari asosida tashkil etilmagan. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun metodik qo'llanmalar yetishmaydi va mavjudlari ham hozirgi zamon talablariga javob bermaydi.

Ijodkorlikga yo'naltirish ishlarini respublikamiz ta'lim islohotlari talabi darajasida yo'lga qo'yish, respublikamiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda bu borada to'plangan ilg'or tajribalarni tadqiq qilib, ijodiy tatbiq qilish davr taqozosi hisoblanadi.

Bu ishlarni olib borish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar bilan test, so'rovnoma, suhbat, kuzatish kabi metodlar orqali tadqiqot ishimizning dastlabki tasdiqlovchi bosqichini olib bordik.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodkorlik-hunarga yo'naltirishga asoslangan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchilarning yosh, ruqiy, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni mehnat ta'limi va ijodkorlikga yo'naltirishda o'simliklarni parvarish qilish, hunarmandchilik jihozlari bilan tanishtirish va ishlov berishda mehnat ko'nikma va malakalari shakllantirilib borildi. Shu bilan birga, ularning qiziqishi va moyilliklariga ko'ra o'zini o'zi ijodkorlikiy jihatdan aniqlash, ijodkorlik-hunar turlarini tanlashi, hunarmandchilik sohalari va ularda ishlatiladigan asbob-uskuna, yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni o'rganib borishlari hamda mehnat faoliyatida ishtirok etishlari ta'minlandi.

I.2. Boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarning mavjudlik xolati.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan mehnat ta'limi mashg'ulotlari ushbu ta'limini amalga oshirishda, o'quvchilarning umummehnat, mehnat, maxsus bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra ko'pgina ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg'unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbqiq etishni ko'zda tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda mehnat ta'limi maktab tizimi umumta'lim fanlaridan o'rganiladigan nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'laydigan quvvatli didaktik vositadir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limining maqsad va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutiladi:

Maktabgacha ta'lim-tarbiya bosqichida bolalarning yosh, ruhiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat dunyosi, jarayoni, kishilari, buyumlari to'g'risidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlar uyg'otish, maqsadli ish-harakat usullari ko'proq o'yinlar tarzida o'rganib boriladi.

Boshlang'ich maktabda (I-IV - sinflar) o'quvchilarni mehnat va hunarmandchilik dunyosi, o'simliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy mehnat va hunarmandchilik asboblari va mehnat, ish-harakat usullari to'g'risida sodda tasavvurlar hosil qilishni ko'zda tutadi. Bu davrda o'quvchilar mehnat ta'limidan o'zlashtirgan bilimlar ko'lamini o'zlarining hayotiy tajribalarida va oiladagi mehnat jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar.

Tayanch maktablarda (I-IV – sinflar) da o'quvchilar umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantiriladi, qiziqish va moyilliklariga ko'ra, o'z-o'zini kasbiy jihatdan aniqlashlari, kasb-hunar turlarini tanlashlarini ta'minlanadi, qiziqish va moyilliklari rivojlantiriladi, umummehnat madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi, xalq xo'jaligi va hunarmandchilikning sohalari, ularda

ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnika va texnologiya bilan tanishtiriladi, mehnat faoliyatining turli qirralarida ishtirok etishlari ta'minlanadi.

Yuqori sinflarda mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish kursi-ishchi va mutaxassislarning amaliyotida qo'llanadigan turli xil qo'l asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalarini o'rgatishni, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, mehnat qonunchiligi xavfsizligi, sanitariya-gigiena qoidalarini va yo'l-yo'riqlari asoslarini o'rgatishni ta'minlaydi. Shuningdek, bu davrda o'quvchilarda xalq xo'jaligining va hunarmandchilikning asosiy sohalari bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu kurslarda o'quvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtira borib, tanlagan kasblari bo'yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli mehnat jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo'ladilar.

Mehnat ta'limining yuqorida ko'rsatilgan maqsadiga erishishi uchun quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- turli sohalardagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni yechish, tajribalar o'tkazish, o'lchov-tekshiruv asboblaridan, ma'lumotlardan foydalana olish, mehnat operatsiyalarini bajarish, olingan natijalarni talab etilgani bilan taqqoslash yo'li bilan xulosa chiqarishga o'rgatish;

- o'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat ahillariga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

- o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirishga odatlantirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotlarni o'zlari iste'molchiga yetkazishlariga o'rgatish, ish boshqaruvchilik (menedjerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish.

Mehnat ta'limini o'rganish jarayonida o'quvchilar, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq

ustalarining ko‘p qirralari boy merosini o‘rganish, o‘zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo‘llash vazifasini hal etadilar.

Mehnat ta'limining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinf-dars mashg'ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo'lg'usi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy ta'minlanishida hamda tarixiy qadriyatlarning yanada boyishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ustoz-shogird" tizimi mashg'ulotlarini tashkil etishni oliy o'quv yurtlaridagi musiqa ta'limida talabalar bilan o'qituvchilarning yakka tartibdagi mashg'ulotlar o'tkazishi bilan taqqoslash mumkin.

Mehnat ta'limida elektron hisoblash texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan qurilmalar va avtomatikaning qo'llanilishini o'rganish, o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robot texnika va ishlab chiqarish texnikasini, texnologiyasini ta'limning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o'rganilishini ta'minlaydi.

Keyingi vaqtlarda kam e'tibor berilayotgan, hatto yo'qolib borayotgan turli xildagi ta'limi-tarbiyaviy tadbirlar: o'quvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo o'quv ishlab chiqarish markazlari, o'quvchilar mehnat jamoalari, mavsumiy ishlarida va otalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishlari va boshqalar mazmunan va shaklan qayta ko'rib chiqilib, qayta ishlab, zamon ruhiga moslashtirilishi va ta'lim tizimi amaliyotiga qo'llanilishi, mehnat ta'limining maqsad, vazifalarini amalga oshirishda asosiy shart-sharoitlardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, oila, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq hunarmandlarining tajribalari hamda o'zaro hamkorlikdagi munosabatlari tiklanib, o'quv jarayonida foydali mahsulot-tovar moddiy ne'matlar yetishtirilib, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishida erishish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda ta'limning qo'yidagi tamoyillariga rioya etish talab etiladi: I.Ta'limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar:

- Nazariy ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borilishi;
- Ta'limning politexnizm asosida qurilishi;
- Ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi;
- Ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

II.Umumdidaktik tamoyillar:

- Amaliyligi; ilmiyligi; tarbiyaviyligi; ijodiyliigi;
- ko'rgazmaliligi; moddiy-texnika jihozlari
- bilan ta'minlanganligi; izchilligi; uzviyligi va boshqalar.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlari o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

1.Mehnat ta'limidan o'rganiladigan bilimlar mazmuni bir qancha umumta'lim fanlari (tabbiyot, iqtisodiyot, atrofimizdagi olam, fizika, matematika, geometriya, jug'rofiya (geografiya), chizmachilik, kimyo, zoologiya, biologiya, anatomiya, botanika, tarix(hunarmandchilik tarixi), rasm (tasviriy san'at) va boshqalar) mazmunida yoritilgan bilimlar, g'oyalar, nazariyalar va tamoyillarga tayanadi. Shu sababli mehnat ta'limi mashg'ulotlari mavzulari ketma-ketligi yuqoridagi fanlarni o'rganish ketma-ketligiga mos holda uyg'unlashtirilmog'i lozim.

2.Mehnat ta'limi mashg'ulotlari umumta'lim fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni va o'quvchilarning hayotiy kuzatishlarini amaliyotda, mehnat jarayonida sinab ko'rish uchun o'ziga xos amaliy laboratoriya vazifasini o'tash uchun xizmat qiladi. Bu sohadagi mukammallikni ta'minlash uchun ham mashg'ulotlar ketma-ketligini tanlashda yuqoridagi fanlarning ma'lum bosqichlarini o'rganilgandan keyingina mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tanlash imkoniyati hisobga olinmog'i lozim.

3.Mehnat ta'limi bir qancha umumta'lim fanlariga amaliy laboratoriya, sinov maydonchasi sifatida xizmat qilishdan tashqari uning o'zi ham mujassamlashgan fan hisoblanadi hamda qator mustaqil fanlarni qamrab oladi. Mehnat ta'limi bevosita qamrab oladigan, tayanadigan, ba'zi qismlarni umumta'lim maktablarida

o'rganiladigan fanlar jumlasiga qo'yidagilarni keltirish mumkin: materialshunoslik, uyshunoslik, agronomiya asoslari, tuproqshunoslik, mashinashunoslik, texnika va texnologiya asoslari, xalq hunarmandchiligi (naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, zargarlik va boshqalar), chorvachilik, mexanizatsiya, ishlab chiqarish asoslari, qishloq xujaligi, kasb tanlash va boshqalar

4.Mehnat ta'limining amaliyligi va mujassamlashagan o'quv fani ekanligidan uning alohida moddiy, xom ashyo, jihozlar ta'minotiga muhtojligi, o'ziga xosligi kelib chiqadi. Ushbu ta'limning to'laqonli yo'lga qo'yilishi uchun turli asbob uskunalar, jihozlar, qurilma va moslamalar, shiyponlar, maxsus binolar avtomobil va traktorlar (agregatlar), trenajyorlar, yer maydonlari, tajriba sinov va o'quv mashg'ulot maydonlari, materiallar (metallar, metallmaslar, gazlamalar, plastmassalar va hakoza) zarurdir.

5.Ushbu ta'lim sohasi alohida o'quv, didaktik, metodik ta'minotiga egadir: Plakatlar, chizmalar, chizish, o'lchash, rejalash va moslama asboblari, operatsion, yo'l-yo'riqli, xavfsizlik, yo'riqnomalar, xaritalar, pasportlar va qurilmalarning guvohnomalari, tarqatmali va ko'rsatmali didaktik vositalar, shablonlar, diafilmlar, o'quv filmlari va boshqalar.

6.Mehnat ta'limining ko'p tarmoqlilik va keng ko'lamdaliligi tufayli turli sohalar bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorlangan mutaxassislariga muhtojligi

7.Mehnat ta'limi mashg'ulotlari qo'yidagi tiplarga bo'linadi:

- a).Nazariy bilimlarni o'zlashtirish;
- b).Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- v).Ishlab chiqarish mashg'ulotlari.

Ushbu ta'limda keyingi ikki tip mashg'ulotlarining tashkil etilishi, yo'lga qo'yilishi, ta'minlanishi, butun ta'lim mazmunining o'zlashtirilish sifatini belgilaydi.

Qator yillardan buyon olib borgan kuzatishlar natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan mehnat ta'limining asosiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, ushbu sohaning har bir bosqichini, mashg'ulotini, mavzusini, mavzu qismlarini o'tishda ham o'ziga xoslik sezilib turishini ta'kidlash o'rinlidir.

Mehnat ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati uning ta'lim mazmunini tanlashda, har bir bosqich uchun belgilab olishda namoyon bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi amalga oshiriladi:

I-IV – sinflarda – keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil materiallar (qog'oz, karton qirqimlari, plastilin, loy va boshqalar) bilan tanishtirish, ulardan an'anaviy va milliy o'yinchoqlar yasash, didaktik materillar tayyorlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish faoliyatiga o'quvchilarni odatlantirish, turmush, sanoat va hunarmandchilik buyumlarining kichraytirilgan nusxalarini tayyorlashni o'rgatish, turli xildagi shakllar, naqshlar yasashni o'rganishlaridan qishloq xo'jaligi, uy ekinlari va chorva mollari to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lish va boshqalardan iborat. Bu davrda mehnat ta'limi darslariga ajratilgan o'quv soatlarini yana bir soatga oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki bir soat davomida o'quvchilarga bajaradigan yumushlari to'g'risida umumiy nazariy tushunchalar berilsa, keyingi soatda esa aytilgan ish harakat usullari amalda bajariladi, amaliy hujjat jarayonida ishtirok etiladi, buyumlarni yasash yo'llari, uslublari o'rganiladi.

I-IV – sinflar – mehnat ta'limida amaliy o'quv mashg'ulotlari orqali xalq xo'jaligi sohalarini qisman yo'naltirilgan holda o'rgatiladi.

Ushbu o'quv mehnat ta'limining etnik, milliy, tarixiy, ma'naviy, mahalliy, jug'rofiy asoslarini ifodalaydi va 150 xildan ziyod turga ega: ganch uymakorligi, naqqoshlik; yog'och, tosh va suyak uymakorligi, kandakorlik, temirchilik, misgarlik, kulolchilik, sandiqsozlik, beshiksozlik, miynogarlik, pichoqchilik, zargarlik, xalchilik, gilamchilik, chopon tikish, muhrkqandlik, kigiz bosish, do'ppichilik, mo'jaz rang-tasvir, sharq miniatyurasi, rextagarlik, zardo'zlik, patdo'zlik, kashtachilik; milliy musiqa asboblarini tayyorlash va ta'mirlash, me'morchilik, savat to'qish, bo'yrachilik, novvoychilik, o'tovlar tayyorlash, oshpazlik, milliy o'inchoqlar tayyorlash, egarchilik, ot-ulov anjomlari tayyorlash (anjomasozlik), kosibchilik, imoratsozlik (binokorlik) va boshqa asosiy yo'nalishlarga ega.

Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini o'rganishda o'quvchilar qo'yidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi,

etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan oʻrni, sohalarining tarqalishi, jugʻrofiyasi, turlari, ularning yoʻnalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termez, Nukus, Andijon, Fargona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning oʻziga xos yoʻllari; tarixiy me'morchilik obidalari, ularning qurilishi, saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat va xom ashyolarining, zahiralarining manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning oʻzaro bogʻliqligi va aloqasi va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligi asoslarini egallashda oʻquvchilar qoʻyidagi amaliy koʻnikma va malakalarga ega boʻladilar: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizatsiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalar bilan ishlash; buyumlarni-hunarmandchilik asarlarini asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; yul-yoʻriqli, operatsiyali, texnologik va ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; jarayonlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlarni va asarlarni iste'molga chiqarish va boshqalar.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limining yuqorida koʻrsatib oʻtilgan yoʻnalishlari, oʻquv kurslari joylarning sharoitlari, ixtiyoji va istiqbolini hamda oʻquvchilarning qiziqishlari, jinsiy xususiyatlarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda, har bir kursni alohida yoki bir sinfda har bir kursni oʻquv yiliga taqsimlab tashkil etish mumkin. Bunday hollardagi oʻgʻil bolalar va qiz bolalar mehnatining oʻziga xos juz'iy xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. oʻgʻil bolalar va qiz bolalar mehnatini tashkil etishda maktablarning oʻquv-moddiy bazasi va oʻquvchilar, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Xalq hunarmandchiligining umumta'lim maktablari mehnat ta'limiga kiritilishi oʻgʻil va qiz bolalar mehnatini tashkil etishning koʻlamini yanada kengaytirishga, shahar va qishlok maktablarida mehnat ta'limi mashgʻulotlarini tashkil etishni

yanada yaxshilashga olib keladi. chunki, ushbu ta'limning an'anaviy ko'rinishda shahar va qishlok maktablarida mashg'ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalari taraqqiyoti, ta'lim muassasani o'rab turgan ishlab chiqarish sohaslarini hisobga olib, ularga bog'lanish zarur. Xalq hunarmandchiligining esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog'lik bo'lmagan holda o'quvchilarga turli umummehnat, maxsus ko'nikmalarni o'rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir.

Mehnat ta'limining yana bir xususiyati asosiy mehnat operatsiyalarining qo'lda bajarilishini o'rgatishga imkoniyatlari beqiyosligidir. Mehnat ta'limi o'quv-dars tizimiga kiritilayotgan davrda ham (bundan 130 yilcha ilgari) asosiy maqsad, bolalarning turli mehnat operatsiyalarini qo'lda bajarilishini takomillashtirishni nazarda tutilgan edi. Ammo, fan texnikaning taraqqiyotiga ko'r-ko'rona ergashish va ta'limni majburan moslashtirishga urinishlar mehnat ta'limining bevosita kul mehnati mazmunidan chetlashib borishga sabab bo'la bordi. Ishlab chiqarishda elektrlashtirilgan, mexanizatsiyalashtirilgan, yarim avtomatlashtirilgan mehnat ta'limi yumushlarining paydo bo'lishi va ularni maktab mehnat ta'limida o'rgatishga urinishlar ushbu sohaning maxalliy sharoitlarda deyarli amalga oshirilmaydigan, mavhum sohaga aylanishiga olib keldi. Ko'pgina qishlok maktablari, tuman markazlaridagi, kurg'onlardagi maktablarda ham (bunday maktablar respublikamizda qariyb 50-60 foizni tashkil etadi) mehnat ta'limining elektrlashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan yumushlarini bajarishga har qanday sharoitda ham, jumladan, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, juda qimmat turadigan uskunalar, stanoklar, qurilmalar, trenajyorlar, minitraktorlar va avtomobillar bilan yalpi ta'minlanish imkoniyatiga ega emaslar. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, "stanoklashtirilgan" ta'minot yetarli bo'lmagach, bunday ta'lim mashg'ulotlari quruq gapdan, og'zaki tushuntirishdan iborat bo'lib qolaveradi, shuning uchun, bizning fikrimizcha "stanoklashtirilgan" mehnat ta'limi mazmunini barcha maktablarga o'rgatishni yalpi ravishda tavsiya etilmasligi lozim. Qolaversa, bunday mehnat ta'limini "majburan" o'rgangan yoshlar o'zlarining kelgusi

hayotlarida elektrlashtirilgan, "stanoklashtirilgan" ish o'rinlariga yalpi ravishda ega bo'lishlari ham mavxumdir.

Bizning fikrimizcha, maktab mehnat ta'limi mazmuni asosan, qo'l mehnati yumushlarini bajarishga yo'naltirilsa-yu, ba'zi imkoniyati yetarli bo'lgan ta'lim muassasalarigina, ya'ni zavod va fabrikalar xududida joylashgan maktablarga ana shunday "stanoklashtirilgan" ta'limni tashkil qilish tavsiya etilsa, haqqoniyrok bo'lardi. Bunday hollarda, yoshlarning kelgusida ish o'rinlari bilan ta'minlanishlari ham ancha xayotiydashgan bo'lardi.

Mehnat ta'limining yangi tizimida "texnik mehnat", "xizmat ko'rsatish mehnati" kabi galiz, asossiz jumladan voz kechildi. Masalan, "texnik mehnat" so'zini olib qaralsa, sirdan qaraganda texnikani o'rganish mehnati mazmunini anglatganday ko'rinsa-da, amalda, "asboblarning mehnati", "badiiy mehnat", "texnologik mehnat", "traktorlarning mehnati", "mashinalarning mehnati" kabi so'zlarning yanada ko'payishiga zamin yaratadi. "Xizmat ko'rsatish mehnati" so'zi esa, bundan ham mavhumroq, asossizroq bo'lib, qiz bolalardan faqat "xizmatkorlar", "xizmat ko'rsatuvchilar", tayyorlash zarur degan ma'noni tushunish mumkin.

Mehnat ta'limida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'lda bajariladigan yumushlarning mazmunini tanlashda xalq hunarmandchiligining imkoniyatlari nihoyatda cheksizdir.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlar mavjuddir. Moddiy ta'minot bo'yicha davlat yo'nalishi kuchsizlangan hozirgi davrda ham, keyingi bosqichlarda ham mahalliy xom ashyo ta'minotini o'quvchilar va o'qituvchilar o'z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligining mehnat va kasb-hunar ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalarning mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o'quvchilarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish va o'rgatish, quruq mehnat yumushlarini

ketma-ket bajaradigan "ishchi-robotlar", "ishchi-mexanizmlar" tayyorlashni qisman bo'lsa-da inkor etadi va ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, yuqori darajada insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, muomalali, odo-axloqli insonlarni tarbiyalashda imkoniyatlari juda yuqoridir.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi ta'lim tizimini Jahon talablari darajasida isloh qilishdan iborat bo'lib, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biri o'quvchilar ijodkorlikiy tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat. Mamlakatimizda izchil ravishda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g'oyasi barkamol ijodkorlik egasini tarbiyalashdan iboratdir. Islohotlar natijasi sifatida shakllantiriladigan barkamol shaxsning mustaqil va ijodiy fikrlash sifatlarini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish alohida ahamiyat ijodkorlik etadi. Har tamonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o'рни beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyati bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotining negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tamonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili xamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagi bola o'z aqlini, irodasini, xissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkun.

Bolalarni mehnatni sevish ruhida tarbiyalash-butun insoniyatni tarbiyalash demakdir. Shu boisdan yosh avlodni mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash barcha ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatining asosiy negizi bo'lib qolmoqda. O'quvchilarning yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qitish va tarbiyalash metodikasining uzluksiz va beto'xtov takomillashtirib borilishini talab qiladi. O'z ishida muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi o'z mehnati natijalarini chuqur tahlil qilib borishi, o'quvchilarning yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga aniq munosabat bildirishi,

yutuqning ham, muvaffaqiyatsizlikning ham sabablarini aniqlashi, tegishli xulosalar chiqarishi va shu asosida o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi zarur. Bu fikrni ilg'or o'qituvchilarning, maktab jamoalarining ish tajribasi tasdiqlaydi. Shu sababli o'qish davridayoq bo'lg'usi o'qituvchi o'zini tadqiqot ishlariga tayyorlab berishi kerak. Bunday ishlash ko'nikmalari ilmiy to'garaklarda shakllanadi.

Mehnat ta'limi to'garagida ishlashga shu nomdagi o'quv kursini o'rganish bilan bir vaqtda kirishish mumkin. To'garakning har bir a'zosi uchun tadqiqot mavzusini tanlaydi va muammoning ahvoli bilan tanishish bu sohada qanday tadqiqotlar o'tkazilganini bilib olish uchun ishni shu sohaga oid adabiyotlarni o'rganishdan boshlaydi. Adabiyot bilan tanishib chiqish, referat yozish va ma'ruzaga tayyorlanishi bilan tugallanadi. Ma'ruzada tadqiqot mavzusi ochib beriladi, uning dolzarbligi asoslab beriladi. Tadqiqot to'garakda muhokama qilinganidan so'ng uning vazifalari uzil–kesil ta'riflab beriladi, so'ngra ishning ikkinchi bosqichi–tadqiqotning o'zi boshlanadi. Buning uchun pedagogik amaliyot davrida eng qulay sharoit yuzaga keladi, chunki tadqiqotchi o'z o'quvchilarini yaxshi biladi, ularga yakka tarzda yondashish mumkin.

Darsliklarda pedagogik tadqiqot metodlari (kuzatuv, eksperiment, ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish va hakoza) ilgari ochib berilgan. Tadqiqot metodi uning vazifalari va mazmuniga qarab tanlanadi. Tadqiqot metodidan tashqari, tadqiqot metodikasini, ya'ni tadqiqot davomida ma'lumotlarni olish usulini ham aniqlash juda muhimdir.

Tajribada tadqiqotning turli–tuman ob'ektiv metodikalari uchraydi. Ular uch guruhga birlashtiriladi:

- Mehnat harakatlarining natijali xarakteristikalarini (buyumning yasaliş aniqliği, sarflangan vaqt, mehnat, unumdorligi va hakoza) o'rganish.
- Mehnat harakatlari parametrlarini o'rganish (ularning mukammalik darajasi, ishlovchining asbob, bilan o'zaro ta'siri belgilanadi). Ushbu guruh metodikalari deb ataladi.
- Mehnat to'garak ta'sirida o'quvchilar organizmida yuz beradigan psixofiziologik jarayonlarning borishini o'rganish.

Mehnat to'garak ta'limini tadqiq qilish jarayonida har xil ob'ektiv metodikalarni qo'llashga qulay sharoitlar yaratilishini ko'rsatish uchun misollar keltiramiz.

Bu misollar mehnat va to'garak a'zolariga o'z ishining rejasini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin.

Xozirgi vaqtda texnik mehnat darslarida va to'garak mashg'ulotlarida amaliy mehnat o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirishning jarayon predmet tuzilishisi qabul qilingan. Lekin ko'pchilik o'qituvchilar yana jarayon majmua tuzilishiga qaytish tarafdoridirlar.

Kuzatuvlarning ko'rsatishicha, to'qqiz yillik maktabda jarayon majmua tuzilishi bo'yicha ishlaganda o'quvchilarning unumli mehnatga kushilishi qiyinlashadi. Gap shundaki, ko'pgina buyumlarni tayyorlash uchun bitta emas, ikkita, uchta va bundan ko'p jarayonni bajarishga to'g'ri keladi. Shu sababli jarayon majmua tuzilishi bo'yicha ishlash uchun bir to'la bir nechta buyum tayyorlashi kerak bo'ladi. Bu buyumlar shunday hisob bilan tanlanadiki, u yoki bu jarayonni bajarishga ajratilgan vaqtning yig'indisi dasturda ko'zda tutilganidan oshib ketmaydigan bo'lsin. Bundan tashqari, tegishli bo'lim o'rganib bo'linganidan keyingina (bu esa yarim yil davom etish mumkin) o'quvchilar o'z mehnati natijalarini ko'ra oladilar. Vaholanki, bu yoshdagi o'quvchilarni natijasi tezroq bilinadigan mehnat ko'proq qiziqtirishi ma'lum.

Bularning hammasi pirovardida shunga olib keladiki, o'qituvchilar va to'garak rahbarlari haqiqatda jarayon–majmua tuzilishi bo'yicha emas, balki jarayon–predmet tuzilishisiga yaqinlashadigan tuzilishi bo'yicha ishlaydilar. Bunda mehnat ob'ektlari shunday tanlanadiki, keyingi buyumni tayyorlash tobora murakkablashib boradigan, dasturda ko'zda tutilgan kushimcha jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Mehnat ta'limida hism va bir butun tushunchalarini anglashga uch xil asosiy yondashish tarixan yuzaga kelgan. Birinchisida bir butun sifat bilan o'quvchilar tayyorlashi zarur bo'lgan ob'ektlar yig'indisi, hism sifatida esa bitta ob'ekt qabul qilinadi. Bunday yondashishi predmet tuzilishisida klassik tarzda mujassamlanadi.

Ikkinchi xil yondashishda butun sifatida o'quv dasturiga kirgan jarayonlar yig'indisi, hism sifatida bitta mehnat jarayonsi qabul qilinadi. U jarayon tuzilishida yorqin ifodasini topdi, bu tuzilishida o'qish jarayonida buyumlar tayyorlash vazifasi umuman kuyilmagan.

Uchinchi xil yondashish avvalgi ikkitasini birlashtiradi. Bunda o'quvchilarni mehnat jarayonlarini bajarish bilan tanishtirib, muayyan buyumlar tayyorlashga ularni ko'p yoki kam darajada jalb qilish vazifasi kuyiladi (jarayon predmet, jarayon majmua tuzilishilari, SIT tuzilishisi).

Jarayon predmet tuzilishisi bo'yicha ishlashda o'quvchilar avval boshidanoq unumli mehnatga kushiladilar. Shu tufayli ularning aktivligi va o'quv faoliyatiga qiziqishi ortib boradi. Bu hol mehnat uquvlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini va jarayon majmua tuzilishinikidan kam bo'lmasligini kutish mumkin. Bunda nazorat guruhlar o'quvchilari uchun o'qitish mazmunining ikki variantda ishlab chiqildi. Ikkala variantda ham nazorat sinflarda o'quvchilar mehnat jarayonlarini ko'zda tutilganidek, alohida o'rganishdi. Biroq birinchi variantda o'quvchilar o'quv mashqlarini bajarish jarayonida o'rganishadi. Keyingi holda har bir o'quvchiga bir necha buyumni tayyorlash topshirig'i berildi. Bu buyumlar shunday hisob bilan tanlangan ediki, har bir mehnat jarayonsini bajarish uchun zarur bo'lgan jami vaqt programmada talab etilganiga mos kelar edi. O'qish tugallangach, nazorat va tajriba-sinov sinflar o'quvchilariga bir xil mazmundagi nazorat topshirig'i berildi.

Jarayon predmet tuzilishisini qo'llash shakllangan amaliy mehnat o'quvlari darajasi, o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishi pasayishiga olib kelmasligi, ularning aktivligi esa ortib borganligi sababli bu tuzilishini darslarda qo'llashga tavsiya qilish mumkin. Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofidagi muhitini, real buyumlarni anglab, bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llanishga imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitish. Jumladan, mehnatning ijtimoiy axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, maehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turi ijodkorliklar haqida

ma'lumotlar berib borilishi, mehnat aqlari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi. Insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, ijtimoiy taraqqiyot asosida, mehnat faoliyati natijasidir. Jamiyatda tashkil etiladigan mehnat tarbiyasi yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularning vatan ravnaqi, el yurt farovanligi yo'lida mehnat qilish, rivojlangan demokratik va huquqiy davlatni barpo etish jarayonida faol ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, yagona maqsad yo'lida harakat qilishga tayyorlashdan iborat jarayonni o'z ichiga oladi.

Sharqning eto'q mutafakkirlari mehnatning shaxs kamoloti, shuningdek, jamiyat rivojidadagi ro'liga yuksak baho berishgan. Zero, mehnat insonning ham ruhan kamolatga etishini ta'minlaydi.

Inson o'z mehnati bilan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratib berar ekan, ayni vaqtda uning o'zi ham shaxs sifatida shakllanib boradi, chunki inson aksariyati hollarda o'z mehnat faoliyati bilan ijtimoiy munosabatlar sub'ekti (ishtirokchisi)ga aylanadi. Shu bois insonni yoshligidanoq mehnat faoliyatiga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida mehnat tarbiyasi o'quvchilarni ruhiy va amaliy jihatdan mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishga yo'naltirilganligi bilan o'ziga xos o'rin tutadi. Ijtimoiy jamiyatning umumiy va iqtisodiy rivojlanishi zamonaviy bosqichda bunyod etuvchi, yaratuvchi hamda ishlab chiqaruvchi shaxsga nisbatan yuksak talablarni kuymoqda, chunonchi, mehnatga nisbatan muhim ijtimoiy burch sifatida yondashish; har qanday mehnat faoliyatiga nisbatan vijdonan munosabatda bolish; mehnat va uning mahsulini qadrlash; mehnatni tashkil etishga jamoa usulida yondashish; doimiy ravishda tashabbuslar bilan chiqish; mehnatni faol, ijdiy tashkil etish; aqliy va jismoniy quvvatga tayangan holda mehnat qilish ishtiyoqining ichki ehtiyojiga aylanishi; mehnatni ilmiy tashkil etish; mehnatga nisbatan asosiy hayotiy zarurat sifatida munosabatda bo'lish.

Mehnatga, mehnat qilishga ruhiy tayorgarlik quyidagi vazifalarni hal etadi:

- a) mehnatning maqsad va vazifalarni anglash;
- b) mehnat faoliyatini tashkil etish ragbatini qaror topdirish;
- v) mehnatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini olib borish maxsus dasur asosida amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi dasuri namunaviy xususiyatga ega. Unda maktab, o'qituvchi va o'quvchilar mehnat faoliyatini baholash bo'yicha ta'lim va tarbiya natijalariga nisbatan davlatning minimum (yeng quyi) talablari aks etadi.

Mehnat tarbiyasi jaroyonida bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalrga ega bo'lish maqsadning o'zi va pedagogik faoliyatning yakuniy mahsuli emas, balki eng muhim insoniy layoqat-mehnat qilish layoqatini rivojlantirish uchun vosita hisoblanadi. Shu bois bugungi kunning talabi mehnat ta'limini tashkil etishda reprodo'ktiv metodlar rolini kamaytirib, yuksak darajadagi mantiqiy fikrlash hamda yaratuvchilik asosini hosil qiluvchi faol tadqiqot metodlaridan foydalaninh hisoblanadi.

II-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA ISHLAB CHIQARISHGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI.

II.1. O'quv mashg'ulotlari orqali ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish shakllari.

Umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligi rivojlantirish faoliyati o'zining shakli, mazmuniga ko'ra xilma-xildir. Shunday bo'lsa ham keyingi o'n yillar ichida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlandi:

3-4 sinflarda o'quvchilar texnik ijodkorlik bilan bog'liq mehnatga qiziqish va jamoa mehnatiga ishtiyoq uyg'otish, ana shu yoshlar guruhidagi o'quvchilarni yasama texnik o'yinchoqlar, modellar va turli jihozlarni konstruksiyalash bilan bog'liq faol texnik o'yinlar, musoboqalar va konkurslarga qatnashtirish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga va tajribachilik ishining eng oddiy shakllariga jalb etish, bolalarda texnika, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi sohalaridagi texnik havaskorlik, ijodkorlik va tajribachilikka intilishni tarbiyalash.

O'quvchilarni maktablar va maktabdan tashqari muassasalardagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi ijodkorliklariga yo'naltirish.

O'quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog'onasida o'qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o'quvchini to'liqlantirgan ishni muhokama qiladi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fan va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag'ishlangan kechalarni tayyorlash va hokazolar bo'yicha individual topshiriqlar beradi. Shundan keyin, o'qituvchi ana shu o'quvchilarni to'garakka birlashtiradi. Bunda ular jamoa topshiriqlarini ham bajara oladilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar to'garaklarida rahbar bilan o'quvchilarning didaktik o'zaro hamkorligi o'yin faoliyati shaklida tashkil qilinadi. Konstruktorlik to'garaklarida o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan

ishlashda bu hamkorlik vujudga kelgan amaliy vazifalarni (masalan, texnika to'garaklarida texnik vazifalarni bajarishda, qandaydir texnik qurilmani, model, maket, tajriba namunasini ishlab chiqish va tayyorlashda) bosqichma-bosqich hal qilish jarayonida tashkil etiladi.

Hozirgi kunda maktablar va maktabdan tashqari muassasalar faoliyatida o'quvchilar texnik ijodkorligi to'garaklarining quyidagi turlari vujudga kelgan:

1. Tayyorlov texnika to'garaklari (kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun). Ularda o'quvchilar jonli va oson shaklda texnika elementlari hamda eng oddiy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar, qog'oz, plastmassa, metall va boshqa materiallarga ishlov berish bo'yicha olgan boshlang'ich ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'quvchilar texnik o'yinchoqlar, mashina va mexanizmlarning sodda modellarini, eng oddiy avtomatik qurilmalar, o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar, maktab hamda uy-ro'zg'or buyumlari va hokazolarni tayyorlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun tayyorlov texnika to'garaklari orasida ko'pincha boshlang'ich texnik modellashtirish to'garaklari, elektrlashtirilgan o'yinchoqlar to'garaklari, transport texnikasini boshlang'ich modellashtirish to'garaklari tashkil qilinmoqda.

2. Predmet (fan-texnika) to'garaklari: fizika, fizika-texnika, ximiya, ximiya-texnologiya, agroximiya, astronomiya va boshqa to'garaklar. Bunday to'garaklar o'quvchilarning maktab o'quv rejasidagi turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini mustaqqamlash, ta'lim xonalarini to'ldirish uchun asbob-uskunalar yasash va shu asosda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish maqsadlarida tashkil qilinadi.

3. Sport-texnika to'garaklari maktablarda, ko'proq maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat ko'rsatadi. Bular aviamodel, raketa-kosmik modellashtirish, avtomobil modelchiligi, kema modelchiligi, temir yo'l modelchiligi, radio boshqarish, suv-motor va boshqa to'garaklar.

Mazkur to'garaklarda o'quvchilar modellarni va ishlaydigan texnikani konstruksiyalash va tayyorlash bilan shug'ullanadilar, keyin esa ana shu modellar

bilan sportning texnik turlari bo'yicha modelchi-sportchilarning musoboqalarida qatnashadilar.

O'quvchilar sport-texnika to'garaklarida tegishli texnika tarmo-g'ining tarixi, uning xalq xo'jaligida va mamlakatimiz mudofaasida qo'llanishgai bilan, Vatanimizdagi havo yo'llari transportlari samolyotlar, avtomobillar, suv yo'llari transporti, radio apparatlari va boshqa texnikalar bo'yicha buyuk konstruktorlar texnik tafakkurining xususiyatlari bilan tanishadilar.

O'quvchilarning ana shu to'garaklardagi faoliyati, eng avvalo, texnikani o'rganish bilan, o'rganilgan mashinalarda ishlashni osonlashtiradigan turli ish moslamalarini yaratish, mashinalardagi har xil tizimlarning ishlash prinsipi va tuzilishini tushunishga yordam beradigan ko'rsatmali qo'llanmalarni tayyorlash bilan bog'liqdir.

Maktab texnika to'garaklari tarmog'ining rivojlanishi va shu to'garaklarning yuksak saviyada ishlashi ko'pincha maktablarda texnika yoki sport texnika, o'quvchilar ilmiy jamiyatlarining klublari tashkil topishiga olib keladi, o'quvchilarning mehnat birlashmalari ishlarning mexanizatsiyalashuvi darajasini oshiradi.

Yangi texnik yechimlarni izlash metodlarini o'zlashtirishga juda qiziqadigan o'quvchilar ko'pincha mahalliy texnik ijodkorlik markaz-laridagi mashg'ulotlarga qatnashadilar, maktabda ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining maktab tashkiloti, maktab konstruktorlik uyushmalari kabi uyushmalarining faoliyati rivoj topadi. Bu birlashmalar pedagoglar va muhandis texniklar jamoatchiligining amaliy yordami bilan o'quvchilarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va qavaskorligini rivojlantirish uchun yaxshi hamda yuksak ijodkorlikiy saviyadagi sharoitni yarata oladi. Ularning ishlab chiqarish, ilmiy muassasalar va tashkilotlar, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining mahalla bilan mustaqkam aloqasini ta'minlaydi.

Bunday ishlarni tashkil qilish va o'tkazishda mahalliy uyushmalarda hamda yosh texniklar markazlarida shug'ullanayotgan to'garak qatnashchilari o'qituvchiga katta yordam berishlari mumkin. Olimlar va ishlab chiqarish ilg'orlari

bilan uchrashuvlar, o'quvchilarning ilmiy-texnik konferensiyalari, texnik ijodkorlik ko'rgazmalari, olimpiada va konkurslar, sayoxatlar, ilmiy-ommabop ma'ruzalar, yosh ixtirochilarning anjumanlari, har yilgi fan, texnika va ishlab chiqarish haftaliklari mamlakatimizdagi maktablar va maktabdan tashqari muassasalarda an'anaviy tus olgan, o'quvchilarni texnik ijodkorlikka ko'proq jalb etadigan ommaviy tadbirlarning shakllaridir.

Ma'lumki, dars o'quvchilarga tarbiya va ta'lim berishning asosiy shaklidir. Dars qanchalik jozibali, uning shakli va mazmuni qanchalik yorqin bo'lsa, o'quvchilar predmetga shunchalik qiziqadilar, ularda ko'proq savollar tug'iladi. Predmet bo'yicha dars mazmunli o'tilsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni ham sifatli o'tish samaradorligini oshiradi.

Tajribali mehnat ta'limi o'qituvchilarining fikricha, o'quvchining qiziqishlari yo'nalishida, uning o'qishdan tashqari faoliyati mazmunida bolalar va o'smirlar ijtimoiy tarbiyasining natijalari yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun bu faoliyatni tashkil etish imkoniyati qanchalik keng bo'lsa, o'quvchidagi qiziqish va qobiliyatni shunchalik barvaqt aniqlash, ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish, o'quvchiga o'z ishini, o'zining kelajakdagi ijodkorlikini topishda yordam berish mumkin.

To'garakdagi ishlar o'quvchilarga biror ijodkorlikdagi mehnatning mazmunini, ommaviy ishchi ijodkorliklarining eng qiziqarli jihatlarini bilib olishlarida yordam berishi zarur. Shuning uchun maktabdagi to'garaklarning faoliyatini belgilashda mahalliy ishlab chiqarishning yo'nalishini hisobga olish kerak.

Rahbar to'garak jamoasini uyushtirish bilan birga to'garakda ijodiy ishlab chiqiladigan va tayyorlanadigan ob'ektlarni belgilaydi, to'garak ishini moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyatlarini, shuningdek, bo'lajak texnik qurilmaning murakkab detallarini tayyorlashda hamda maslaqatchilarni jalb qilishda amaliy yordam ko'rsatish uchun baza, korxonaning imkoniyatlaridan foydalanish miqyosini aniqlaydi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi boshqaradigan to'garakdagi o'quvchilar mehnatining ob'ektlarini belgilashda asosiy diqqat – e'tibor maktab ustaxonalarini ayrim texnik qurilmalar, texnologik uskunalar, mehnat birlashmalaridagi mehnatning kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlashga, maktab ustaxonalaridagi mavjud uskunalarni ta'mirlash va takomillashtirishda, o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishida yordam beradigan har xil ko'rsatmali qo'llanmalarni, elektrlashtirilgan stendlarni, bilishga doir o'yinlarni ishlab chiqishga haratiladi.

O'quvchilarning to'garakdagi ish uchun ob'ektlar tanlashdan oldin o'quvchilarning o'zlarini tayyorlash, ularda kishilar uchun kerakli buyumlarni ishlab chiqish hamda yasashga qiziqish va ishtiyoq uyg'otish kerak.

Ishning muvaffaqiyati o'qituvchi, to'garak rahbari to'garak qat-nashchilari orasida vazifalarning taqsimlanishini qanchalik aniq tashkil etgani, ularning individual va yosh xususiyatlarini, maktab ustaxonalari sharoitida tavsiya qilingan ishni bajarishga amaliy tayyorlik darajasini hisobga olgani bilan ham belgilanadi. Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish jarayonida asosan mahalliy kablar bilan tanishtirish ko'zda tutiladi. Davlat ta'lim standartida ham boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqligi ko'zda tutilgan. Jumladan 5-ta ijodkorlik turi bo'yicha ijodkorliklar bilan tanishtirishni ko'zda tutiladi bular inson-tabiati, inson-texnika, inson-inson, inson-belgili tuzilishi, inson-badiiy obraz shuni nazarda tutish kerakki ijodkorliklar bilan tanishtirishda uning qiyin tomonlarini aytmaslik maqsadga muvofiq. Dasturda ko'rsatilgan amaliy ishlarni har doim ham maktab to'garaklari faoliyati jarayonida bajarib bo'lmaydi. Bu juda ko'p sabablarga, jumladan, ustaxonalarning moddiy texnik bazasiga, o'qituvchining amaliy tayyorgarligiga ham bog'liqdir. O'qituvchi dasturda ko'rsatilgan vaqtdan mavzular bo'yicha ajratilgan vaqtlar nisbatini aniqlash uchun mo'ljallanish sifatida foydalanishi mumkin.

Dasturlar maktab to'garagi mashg'ulotlarini haftada bir marta to'garak ishining birinchi yili ikki akademik soatdan va ikkinchi yili uch akademik soatdan o'tkazishni mo'ljallab tuzilgan.

To'garak rahbariga ish haqi to'lash bilan bog'liq masalalar qoidaga muvofiq maktab ma'muriyati va baza korxonaning kasaba uyushmasi tomonidan hal qilinadi. Ba'zan maktablardagi texnika to'garaklari yosh texniklar markazining filiali sifatida tashkil etiladi. Bunday hollarda to'garak rahbarining ish haqi maktab va tegishli yosh texniklar markazi jamoalarining hamkorlik to'g'risidagi shartnomasi asosida belgilanadi.

To'garak faoliyati doimo to'garak rahbari tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan ish rejasi bo'yicha amalga oshiriladi.

To'garak ishining rejasi to'garakning namunaviy dasturi yoki to'garak rahbari o'qituvchining o'zi tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan dastur asosida tuzilishi mumkin.

Ko'pincha to'garakning ish rejasi mashg'ulotlar boshlanishidan ancha oldin, rahbar hali to'garak qatnashchilari ro'yxatini aniq bilmaydigan paytda tuziladi va tasdiqlanadi. Aslida esa to'garakning yillik ish rejasi loyihasinigina oldindan tayyorlash, keyin to'garak qatnashchilarini ana shu loyiqa bilan tanishtirish, uni uzil-kesil ma'qullashni esa navbatdagi mashg'ulotlarda, ya'ni o'quvchilar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini va o'zlarini nimalar ko'proq qiziqtirishini bilib olganlaridan so'ng amalga oshirish to'g'riroqdir.

O'quvchilarning faol ishtirokida tuzilgan reja eng to'g'ri bo'ladi, chunki bunday reja har bir o'quvchining ishiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'lga ega bo'lishi, xalq xo'ja-ligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradordigini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy

fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Darsdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning sama-radorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng za-monaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokozolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni ijodkorlikiy tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muqitdan himoya qilish muhimdir.

Ijodkorlikiy tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy ma'naviy tarixiy an'analarga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tash-kiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Hozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jihatdan ijodkorlikiy-tarbiyaviy ishlarni o'smirlar orasida kuchaytirish talab etiladi. Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari (o'qituvchilar, sinf Rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o'quvchilarni ijodkorlikga yo'naltirish asosida hayotga tayyorlashdek muhim vazifa turadi.

O'quvchilarda ijodkorlikiy tarbiyani shakllantirishda kitob va kitobxonlik muhim ahamiyat ijodkorlik etadi. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevish, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim. O'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak. Bu ishda ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

Ijodkorlikni tarbiyani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va oshkorlikni himoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o'quvchilar Respublika mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o'zinkidek qabul qiladigan bo'lsin. Ularning og'irligini o'z yelkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko'zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalaridagi tub o'zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini tushunsin.

Iqtisodiy tarbiyaning umumiy maqsadi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijodkor shaxsni hayotiy faoliyat vositasidan unumli foydalangan holda uning iqtisodiy savodxonligini, iqtisodiy mada-niyatlilik darajasini oshirishdan iborat.

Shunga muvofiq shaxsning kamol topishi faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisi, o'rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir. Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bolalarning eng oddiy, shuningdek, ancha asosli iqtisodiy bilimlar, hayot me'yorlari va qoidalarini bilib olishlari, tushunchalarni kengaytirishlari hamda mustaqamlashlari uchun ularga keng sharoit yaratib berishlarini taqozo etadi. Bunda uzluksiz iqtisodiy ta'lim tarbiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqarishda mamlakatimizdagi barcha davlat boshharuv tashkilotlari qatnashishi ko'zda tutiladi.

Hozirgi kun talablariga javob berish barobarida uzluksiz ta'limning yagona tizimi, umumta'lim tayyorgarligining uzluksiz ta'limdagi ahamiyati, shaxs barkamolligi, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsata olishda uzluksiz ta'lim, turli faoliyatlardan vosita sifatida foydalanish, iqtisodiy munosabatlarga jalb etish kabi ilmiy harashlar tizimi shakllanadi.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishni vaqt bilan qat'iy chegaralash mumkin emas. Uning uzluksizligini ta'minlovchi, iqtisodga yo'naltirilgan ta'lim-

tarbiya tadbirlari tizimidagi markaziy siymo Jahon andozasiga mos keluvchi ijodkor shaxsdir. Shaxsning kamolotga intilishi ijodkorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy muhit, ehtiyoj ijodkor shaxsni yaratuvchi kuchdir. Eng ilg'or fikrlar, mafkura, eng takomillashgan tafakkur faoliyat vositasida moddiylashganda, seziladigan narsa tusiga aylangandagina iqtisodiy tarbiyaning omiliga aylanadi. Iqtisodiy tarbiya bo'yicha darsdan tashqari ishlar o'quv jarayoni bilan tarkiban va mantiqan uyg'unlashgan holda bo'lishi kerak. To'garak faoliyati, iqtisodiy bilim anjumanlari va baqs-munozaralari o'quvchilarning yosh va aqliy xususiyatlariga muvofiq bo'lishi, umumiy tarbiyaviy jarayonga mos kelishi zarur.

Bunda iqtisodiy tarbiyaning o'quvchilar ijodkorlikiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatish umumiy mazmunining ajralmas, uzviy qismi ekanligini yodda tutish kerak. Belgilangan maqsadga qaratilgan tushuntirish ishlarini oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim, oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarida, maktabdan tashqari ta'lim maskanlarida, mahallalarda, xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish institutlari va boshqa muassasalarda olib borish, turli tadbirlar o'tkazish ham muhim o'rin tutadi.

Yillar davomida va turli bosqichlarda olib boriladigan o'quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha tuziladi. Mashg'ulot shakli, maqsadi, mazmuni, pedagogik o'ziga xosligi, shuningdek, ish rejaları fan mantiqini hisobga olgan holda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko'ra farqlanishi lozim.

O'quvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi estetik qadriyatlarga yo'naltirish foydalidir. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning, O'zbekistonning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish kerak. Bu borada asosiy manba sifatida badiiy estetik qadriyatlar, qadimiy san'at turlarini tanlash zarur. Milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, ayniqsa, Sharq miniatyura san'ati, qaykaltoroshlik, hunarmandchilik, musiqa va san'atning boshqa turlari (teatr, sirk va q.k.) xalqning o'tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi; yashash joyi, kiyinishi, mehnat qurollari va hakovolar muhim o'rin tutadi, milliy san'at tarixiga, etnografiyasiga, me'morchiligiga va an'anaviy san'at turlariga alohida e'tibor berish talab etiladi.

O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, sharq mutafakkirlarining dono fikr-muloqazalaridan, shuningdek, Jahon umuminsoniy qadriyatlaridan foydalanish ma'qul bo'ladi.

Bu aniqlangan bilimlar tizimi, estetik tuyg'ular, qiziqishlarni singdirish, o'rganish, fikrlash, mulohaza etish, munosabat, qimmatli yo'nalish, harashlar, baholar, g'oyalar, faoliyat (ijodiy, estetik), mukammallik, bilimni oshirish va o'z-o'zini ijodkorlikiy tarbiyalashdan iboratdir.

Darsdan va maktabdan tashqari ishlarda estetik tarbiya mazmunini, birinchi navbatda, majmuiy, tizimli tatbiq etishga ko'ra uch xil maqsad uyg'unligi (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlanib boruvichi), psixologik va pedagogik jarayonlar mushtarakligiga, ta'lim jarayonida jamiyat talablarini e'tiborga olishga, yangicha bilimlarga amal qilish va hakoza qoidalar asosida tarkib topmog'i kerak. Ular asosida o'quvchi shaxsiyatiga nisbatan yo'nalish belgilanadi.

Bu maqsadga erishish uchun o'quvchilar bilan to'garak, fakultativ, mashg'ulotlarda san'atshunoslik, san'atning ayrim turlarini, Jahon va milliy madaniyatni o'rganishning har xil shakllaridan foydalanish mumkin.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki darsdan va maktabdan tashqari ishlarda amalga oshirilayotgan va yana qayta tiklanayotgan turli dasturlarda shaxs shakllanishiga, ma'naviy kamolotiga, murakkab hayot chorahalarida ma'naviy mas'uliyat bilan yashashga o'rgatishni shakllantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti tarkib topayotgan bir kezda o'quvchilarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda, albatta, ishlab chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning yangi-yangi omillarini, ularga tanish turlarini belgilab olish darkor. Bolalarda hunar va ijodkorlikga bo'lgan muhabbatni uyg'otish jarayonida ularning ijobiy hislatlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarni quyi sinfdan ijodkorlikga yo'naltirib, 9-sinfni tugatganlarida akademik litsey yoki ijodkorlik-hunar kollejlariga yo'llanma berish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni bozor sharoitiga o'rgatishning o'zi ularning halol va fidokorona mehnat tufayli foyda olish haqidagi amaliy bilimlarini boyitadi.

Bolalarni jamoa bo'lib, hamkorlikdagi mehnat natijasida mahsulot soni va xizmat turlarini oshirish mumkinligiga ishontrish muhim hisoblanadi. Bolalarning qurilish maydonchalari, yordamchi yig'im-terim brigadalari saflarida hunarmandchilik bilan shug'ullanishlari, usta-shogird maktablariga qatnashib xalq amaliy san'atida, bemorlarga yordam ko'rsatish va nafaqaxo'rlarga xizmat ko'rsatish bo'limlaridagi, qovlilarni va ko'cha-ko'ylarni tartibga keltirishdagi, sanoat korxonalarida, hisoblash markazlari, shifoxonalar va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ishlari alohida qo'llab-quvvatlab boriladi. Ular bu ishlarning barchasidan ma'naviy foyda topish malakasini oshirib boradilar zero, bozor munosabatlari bugungi kunda jahonda tan olingan moddiy barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirib turadigan birdan-bir vositadir. Bu munosabatlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun qat'iy intizomga, texnik va iqtisodiy bilimga, malakali mutaxassislarga, ishni to'g'ri tashkil qilishga asoslaniladi. O'quvchi bozor qarama-qarshiliklarini va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganib boradi.

Bugungi kunda mo'qammal iqtisodiy tarbiyani takomillash-tirmasdan ish qilib bo'lmaydi. Shu bois o'qituvchi, sinf rahbari, maktabdan tashqari ta'lim muassasasi xodimlari nafaqat bilim berishlari, balki o'quvchilarda iqtisodiy faoliyat malakasini hosil etish, bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlashga o'rgatish lozim bo'ladi. Bolalarga savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi iqtisodiy termin va tushunchalarni o'rgatish, ularni qanday qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishga ijobiy yondashuvning rivoji, topqirlik, ixtirochilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayligina yuqori samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirilsa, o'quvchilar iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonadi.

Bozorning axloqiy va huquqiy me'yorlari bu insonning axloq me'yorlarining o'zginasidir. Bular-halollik, berilgan so'zning ishonchli va qat'iyligi, batartiblik, ijrochilik, majburiy mehnatni tashkil qilish, kredit va

harzlarni qoplash, brokker (vositachi)lik ishlarini olib borish, xushmuomalalik, sherikka, iste'molchiga bo'lgan hurmat va hakovolar. Bularning barchasi o'quvchiga singdirilishi lozim.

Maktabda rivojlangan nazoratli bozor munosabatlarini tashkil qilish, bo'lg'usi tadbirkor va ishbilarmon kishilarni shakllantirish, uddaburon xo'jalik yurituvchi, iqtisodiy fikr va mushoqadasi rivojlangan odamni tayyorlash imkonini beradi. Mehnat tarbiyasida bolalarni tizimli iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, iqtisodiy qonunlar va qarama-qarshiliklardan oqilona foydalana oladigan qilib tarbiyalash juda muhimdir.

Bu ishlarning hammasi samarali ijodkorlikga yo'naltirish ishlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ijodkorlik tanlagan o'smirlarga yordam berish va uning mahoratini, iqtidorini namoyon etish uchun xizmat qiladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni ijodkorlik-hunarga yo'naltirishda iste'dodli va zukko bolalarni aniqlash va tarbiyalash muhim ahamiyat ijodkorlik etadi. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va kullab-quvvatlashga bog'liqdir. har qanday jamiyatga iste'dodli shaxslar zarur. Shu nuqtai nazardan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitish respublikaning bo'lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning yagona manbaidir.

Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o'quvchilar iste'dodini aniq tahlil etish, bolalarning o'ziga xos psixo-logik jihatlari va fazilatlari hisobga olish darkor.

Turli yoshdagi iste'dodli o'quvchilarni namoyon etishda hozirgi kunda, avvalo, maktab pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostik tajribalardan unumli foydalanishlari zarur. Bunda «Respublika Iste'dod Markazi» xodimlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Iste'dod markazi xodimlarining faoliyati tajribasidan foydalanish, ularning iste'dodni aniqlashga mo'ljallangan psixologik tadbirlarini pedagogik tajribalar bilan ishlab chiqish lozim. Bu sohada «Ulug'bek», «Oltin meros», «Iste'dod» jamg'armalari bilan hamkorlikda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarni

aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirishi imkonini yaratadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o'quvchida mavjud bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida o'quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dodli va iqtidorli to'garak a'zolari alohida rag'batlantirildi, ularga mukammallik uchun sharoit yaratildi, ularning ijobiy qiziqishlari, rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish namunali amalga oshirildi.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa, Respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish va ularning ta'lim-tarbiyasini muntazam ravishda to'g'ri yo'lga qo'yish muhimdir.

Iste'dodli bolalarni respublikamiz mintahalarining hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy kamol toptirishda diagnostik uslubiyatlar, o'quv rejalari va o'quv-uslubiy, tarbiya va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash lozim. Shuningdek, iqtidorli bolalarni izlash, topish va tarbiyalash uchun zamonaviy moddiy-texnik hamda moliyaviy jihatdan to'liq ta'minot zarur.

Iste'dodli bolalar salomatligini muhofaza qilish uchun ularni ruqiy zarbalardan asrash yo'llarini aniqlash, ruhan yordam ko'rsatish, qattiq qayajonlanish holatlarini o'rganish ularning ijodiy qobiliyatlari rivoji uchun sharoit yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish darkor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari xodimlari, yetakchi olimlar va mutaxassislar, ijodkorlar, amaliyotchi o'qituvchilar, to'garak rahbarlaridan iborat Respublika metodik kengashi tuzilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Kengash

ijodkorlik-hunarga yo'naltirish ishlarini muvofiqlashtirib, yo'naltirib, tashkil qilib boradi.

Iste'dodli va iqtidorli bolalarning ijodkorlik-hunarga yo'naltirish ishini tashkil qilishda turlicha o'quv reja va dasturlariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni ijodkorlik-hunarga yo'naltirish uslubiyati, psixologik, pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratish maqsadida maxsus o'quv dasturlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishda eng yaxshi pedagog va olimlarning faol ishtiroklari tavsiya etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy, ijodkorlikiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyatini amalga oshirish; akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish, rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish zarur.

Mazkur vazifalarni hal qilishda mahalla faoliyati muhim ahamiyatga ega. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mahallaning ustunligi shundaki, ko'p yillar davomida birga yashagan kishilar yagona do'st oilaga uyushganlar. Ular bir-birlarini, har bir oila va har bir bolani, ularning ota-onalarini va imkoniyatlarini yaxshi bilishadi. Mahallada an'anaviy tarbiyaning sharqona uslublari tarkib topgan. Masalan, hashar usuli bilan ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinib, og'ir daqiqalarda bir-birlariga yordam berishadi. Bu esa so'zsiz katta tarbiyaviy ahamiyatga ega va ahloqiylikni rivojlantirishga, jamiyatning boshlang'ich negizi sifatida oilani mustaqkamlashga yordam beradi.

Ta'lim muassasalari negizida pedagogik, ijodkorlikiy, huquqiy, psi-xologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar o'quvi» faoliyatini tashkil etish, bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Darsdan va maktabdan tashqari ijodkorlikiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi asosiy tadbirlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- ijodkorlikiy tarbiya jarayonini tashkil etishning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar majmuasi va maqsadli dasturlar ishlab chiqish;
- ijodkorlikiy tarbiyani zamon talablari asosida tashkil etadigan pedagog xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish;
- ijodkorlikiy tarbiya vazifalarni hal qilish uchun respublikaning barcha ilmiy kuchlari: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, oliy o‘quv yurtlari, fan, tarmoq, davlat va nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy-pedagog bo‘limlar faoliyatini birlashtirish zarur.

Darsdan va maktabdan tashqari ijodkorlikiy tarbiya mezonini amalga oshirishni davriy tahlil qilish rejali, ayrim ilmiy yoki pedagogik jamoalarning takliflari bo‘yicha o‘tkazilishi ham mumkin. Lekin har qanday vaziyatda tahlil qilishda ham ilmiy, ham amaliyotchi xodimlarning ishtirok etishi shart ekanligini unutmaslik kerak. Davriy ilmiy tahlil asosida tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilash va tuzatishga da'vat etilgan bo‘lsa, uning kundalik va doimiy tashkilotlari qatori amaliyotchi pedagoglarni ham keng jalb qilish lozim. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining uslubiy ishilariga alohida e'tibor berish kerak. Ular bolalar va o‘smirlarni tarbiyalash bilan shug‘ullanayotgan xodimlarning barcha toifalarini uslubiy yordam bilan ta'minlashlari, ushbu ishlarning ilg‘or tajribasi asosida to‘garaklar va uyushmalar, maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining dasturlarini ishlab chiqadilar hamda ularni takomillashtiradilar.

Umumiy o‘rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o‘z ishining ustasi bo‘lgan o‘qituvchi va to‘garak rahbariga muhtoj.

Shaxs sifatida bunday pedagog xodimlarning o‘zi har tomonlama rivojlangan, bilimdon, keng ko‘lamdagi umummadaniy va ijodkorlikkor ma'lumoti, ko‘nikma va malakasiga hamda o‘zligini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

1. Hunarli kishi xor bo'lmas.

Mavzu: Hunarli kishi xor bo'lmas.

Maqsad:

a) Ta'limiy maqsad: mehnatga oid bilimlarni shakllantirish.

b) Tarbiyaviy maqsad: mehnatni tarbiyalash

v) Rivojlantiruvchi maqsad: kasb-hunarga yo'naltirish.

g) Motivatsion maqsad: kasb-hunarga oid mustaqil xulosaga kelish

Jihoz: darsliklar, qog'oz, flamaster, mavzuga oid rasmlar.

Uslub: «Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash»

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifasini so'rash va baholash: «O'qish» darsligidagi «Hunarli kishi xor bo'lmas» mavzularini so'rash va baholash.

III. Yangi mavzu: Hunarli kishi xor bo'lmas.

Aziz o'quvchilar bugungi mavzuimizni «Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash» usuli yordamida o'rganamiz. Sinf o'quvchilari 4-5 o'quvchidan iborat guruhlarga bo'linadi va ular oldiga qo'yilgan muammo «Hunarli kishi xor bo'lmas» mazmunida topshiriqlar, rasmlar, asosida quyidagi topshiriqlarni oladi:

- Podshining o'g'li;
- Shahzodaning hunar o'rganishi;
- Shahzodaning ovga chiqishi;
- Shahzodaning xavf-xatardan qutulishi.

Har bir guruh topshiriqni 3 daqiqa davomida bajarishadi, muammoga oid materiallarni topib, suratlarni qirqib va plakatga yelimlaydi va matnni sharhlaydi. Har bir guruh hisobot beradi. Boshqa guruh o'quvchilari savollar berishadi va ishni baholashadi. Mavzu umumlashtiriladi.

IV. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: Mavzu savollar yordamida mustahkamlandi:

1. Podshl o‘g‘lini tarbiyalash uchun nima qildi?
2. Vazir qanday maslahat berdi?
3. Shahzoda qanday hunarlarni o‘rgandi?
4. Shahzoda ovga chiqqanda nima bo‘ldi?
5. Shahzoda qaroqchilardan qanday qutuldi?

V. Uyga vazifa: «O‘qish» darsligidagi «Hunarli kishi xor bo‘lmas» mavzusini o‘qish va rasmni yakunlash.

2. Me'mor bo‘laman.

Mavzu: Me'mor bo‘laman.

Maqsad:

a) Ta'limiy maqsad: mehnatga oid bilimlarni shakllantirish.

b) Tarbiyaviy maqsad: mehnatni tarbiyalash

v) Rivojlantiruvchi maqsad: kasb-hunarga yo‘naltirish.

g) Motivatsion maqsad: kasb-hunarga oid mustaqil xulosaga kelish

Jihoz: darsliklar.

Uslub: suhbat

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, o‘quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifasini so‘rash va baholash: «O‘qish» kitobidagi «Hunarli kishi xor bo‘lmas» hikoyasini so‘rash va baholash.

Yangi mavzu: «Me'mor bo‘laman» she'rini o‘qish.

Orzum ulkan,

Hali bolaman.

Ulg‘ayganda,

Me'mor bo‘laman.

Mana, chizdim
 Men bir loyiha,
 Tomosha qil,
 Sen ham Soliha.
 Qavat-qavat,
 Binolar qator,
 Maktab, bog‘cha
 Stadion bor.
 Bir tomonda
 Katta xiyobon,
 Dam olishga
 Chorlaydi har on.

III. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: me'mor rasmini chizish.

IV. Uyga vazifa: She'rni yod olish.

3. Mehnatsevarlik – bebaho boylik.

Mavzu: Mehnatsevarlik bebaho boylik.

Maqsad:

a) Ta'limiy maqsad: mehnatga oid bilimlarni shakllantirish.

b) Tarbiyaviy maqsad: mehnatni tarbiyalash

v) Rivojlantiruvchi maqsad: kasb-hunarga yo‘naltirish.

g) Motivatsion maqsad: kasb-hunarga oid mustaqil xulosaga kelish

Jihoz: darsliklar, qog‘oz, flamaster.

Uslub: «Pinbord»

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, o‘quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifasini so‘rash va baholash: takrorlash

III. Yangi mavzu: Mehnatsevarlik bebaho boylik.

Aziz o'quvchilar bugungi mavzuimizni «Pinbord» usuli yordamida o'rganamiz. «Mehnatsevarlik bebaho boylik» mavzusidagi munozarani quyidagi savollar orqali tezlashtiriladi:

- Mehnat so'zi qanday ma'noni anglatadi?
- Mehnatsevarlik qanday fazilat?
- Uyda biz qanday ishlarni bajaramiz?
- «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik» maqolning ma'osini toping.
- Mehnat qilmaslik nimalarga olib keladi?
- Mehnatga oid qanday maqolalarni bilasiz?

Mazkur savollar asosida munozara vaqtida mavzu ishlab chiqiladi. Munozara davomida shakllangan fikrlarni asosiy xulosalar ko'rinishda qog'oz varag'ida doskaga ilib qo'yadilar. Sinfdagi 2-3 o'quvchi o'rtoqlari bilan maslahatlashgan holda mazmuniga qarab ma'lumotni tartiblaydilar va guruhlariga quyidagicha bo'ladilar:

- Mehnat kishini chiroyli qiladi.
- Mehnatsevarlik kundalik hayotni chiroyli, farovon, unumli o'tkazish uchun insonga quvonch va shodlik bag'ishlaydigan fazilatdir.
- Uylarni tozalaymiz, supuramiz, idishlarni yuvamiz, axlatlarni tashlaymiz, pollarni artamiz, changlarni artamiz.
- Mehnat bo'lmasa, turmush ham bo'lmaydi.
- Dangasalikka olib keladi.
- Mehnat, mehnatning tagi rohat.
- Jonivorlarga oqilona munosabatda bo'lish kerak.

Strelka, chiziq va boshqa belgilar yordamida ularning o'zaro munosabati: bir butun yoki qarama-qarshi ekanligi ko'rsatiladi.

IV. O'tilgan mavzuni mustahkamlash: takrorlash.

V. Uyga vazifa: «Odobnoma» kitobidagi «Mehnatsevarlik bebaho boylik» mavzusini ifodali o'qish.

Mavzu: Xunarli kishi xor bo'lmas.

I- Maqsad.

a) Ta'limiy maqsad;

Mexnatga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mexnat haqida tushuncha berish vaqtdan unumli foydalanish.

b) Tarbiyaviy maqsad:

Mehnatni tarbiyalash mehnat qilib xor bo'lmasligimini o'quvchilarga tushuntirish.

d) Rivojlantiruvchi maqsad:

Kasb xunarga yo'naltirish o'quvchilarning xulq atvorini mukammal insoniy vazifalarini rivojlantirish. O'quvchilarning og'izaki va yozma malakalarini oshirish ijodiy mantiqiy tafakkurini o'stirish.

II- Darsning uslubi:

Aralash ko'rgazmali kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash.

III- Dars jixozi:

Darsliklar, qog'oz, flamaster, mavzuga oid rasmlar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

Darsning borishi.

I-Tashkiliy qism.

So'zlarning eng shirini

Ochiq aytay sirini

Odob bo'g'in sharbatin

Qalb gavharin qimmatin

Qo'l berib shu so'z bilan

Deyman Assalomu-alaykum?

Salomlashib bo'lgach o'quvchilar davomati tekshiriladi. Qaysi yil, sana, fasl kun so'raladi.

II- uyga vazifani so'rash va baxolash.

Uyga berilgan topshiriq asosida savollar beriladi. O'quvchilar javob beradi.

Xusan: Arxeolog qadimgi shaxarlar tarixiy obidalar, qadimda yashab o'tgan insonlarning turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi kasb egasi hisoblanadi. Ular

qadimgi odamlar yashab o'tgan manzillarda qarish ishlarini olib boradilar. Topilgan turli buyumlar yordamida o'sha davr odamlarining hayoti haqidama'lumot tayyorlaydilar. Ular tarix geografiya, kimyo kabi fanlarni yaxshi bilish kerak.

Muxammadali

Qadimiydir bizning yer
Tarixi milliaroslab yil
yerda har qarich tuproq
Qancha sizlardan ogoh
Arxeolog shunday zot
O'tmishda qanday xayot

Shoxjaxon

O'qituvchi kasbi haqida gapirdai. O'qituvchi buyuk kasb yegasi. O'qituvchi sizga bizga bilim beruvchi inson o'qituvchidan olgan bilimi bilan inson o'z komillik yo'lini berayotgan bilimni chuqur egallashi lozim.

Bilim olib chinakam
O'rganamiz harf raqam
Hammaga berar ta'lim
O'qituvchi muallim

Mehribon Haydovchi erta tongdan kun botgunga qadar odamlarni o'z manzillariga Bexatar yetib olishlari uchun xizmat qiladi. Haydovchi kasbi doim ziyraklik xushyorlikni talab etadi. Haydovchi mashina, avtobus, tramvay, yuk moshinalarini boshqaradi.

Moshinada poezdda
Tramvayda temir izda
Ziyrak moxir haydovchi
Tashir yuu va yo'lovchi

Maxliyo: Hamshiralik eng oliyjanob kasblardan biridir. Hamshira shifokorning ko'rsatmalarini aniq va bexato bajarib bemorning dardiga malham bo'ladi. Hamshira ochiq chexrali va shirin so'z bo'lishi kerak.

Davo olganda bemor
Muolajalar darkor
Charchamas ishlab sira
Oq halatli hamshira

Hasan: Har bir maktabda kutubxonachi bor. Kutubxonachi o'qituvchi va o'quvchilarga qiziqarli kitoblarni topishga yordam beradi. Kitob varaqlarini yirtmaslik ularni asrash kerakligini aytadi.

Kutubxonachi opa
Biz kelsak kitob topar
Ilm oling o'qing der
Va bilimdon bo'ling der

Farangiz: Tikuvchi bu biz va sizga bejirim chiroyli ko'ylaklar tikib beradigan kasblar egasi. O'z maxorati tufayli kishilar olqishiga sazovor bo'ladi. Ularning mexnati tufayli biz doim chiroyli ko'ylaklar kiyib yuramiz.

Tikuvchi ko'r ter to'kar
Tikuvchi ko'ylak tikar
Yupka shim-u kamzulcha
Sarafan halat nimcha

Yulduz: Shifokor kasbi eng sharaflil va masuliyatli kasblardan biri. Yaxshi shifokor bo'lish uchun tinim bilmay izlanish lozim. Shifokorlar nafat dori darmonlar bilan balki shirin so'z bilan bemor dardini yengishga yordam beradi.

Dard bor joyda darmon bor
Buni bilar shifokor
Orangizda bo'lsa bemor
Tuzatishga u tayyor

Dilnoza: Sotuvchi to'g'rilik, xushmuomilalik, madaniyatlik kabi fazilatlar egasi bo'lishi kerak. Sotuvchilar xaridorlarga beminnat hizmat qilishlari va ularda o'z maslaxatlarini ayamasliklari kerak.

Sotuvchi savdo qilar
Muomalani bilar
Asosiysi minatdor
Bo'lib ketsin xaridor

Oypari: Dehqonchilik bilan qadimdan ota bobolarimiz shug‘ullanib kelishgan. Dexqonlar yerga ishlov berib urug‘ qadaydilar urug‘dan unib chiqqan yosh nixollarni parvarshlab dasturxonimizga yetkazib beradilar.

Marjona: Bog‘bon qadar bo‘lib – dol

Ekar sug‘urar nixol

Mevaga kirganda bog‘

Bog‘bon qaddi bo‘lar tog‘

Bog‘bon bog‘ yaratib har xil ko‘chat – o‘simliklarni parvarishlab shirin sharbat mevalarni yetishtiradi. Doimo halqimiz “O‘zingdan yaxshi nom qoldirmoqchi bo‘lsang bog‘ yarat” deydi

O‘qituvchi: mana o‘quvchilar kasblar haqida ma'lumotga ekanlar biz ham bilib oldik endi yangi mavzuni boshlaymiz. Mavzu: Xunarli kishi xor bo‘lmas ertagini suxbatga bog‘lagan xolda rasmlar yordamida o‘qib so‘zlab berish. Ertak mazmunini o‘quvchilar bilan savol javoblartarzida birgalikda tahlil qilish.

1. Podsho yolg‘iz o‘g‘li taqdiri haqida kim bilan maslahat qildi?
2. Shaxzodani nimalarga o‘rgatdilar?
3. Ovga chiqqan shaxzoda qay ahvolga tushdi?
4. Shaxzodani qanday qilib qaroqchilar qo‘lidan qutqardilar?
5. Podisho nima uchun vaziriga minnatdorchilik bildirdi?
6. “Yigit kishiga 70 xunar oz” degan hikmatni siz qanday tushunasiz?

Bu yertakni yaxshilab o‘qitib savol javobdan keyin o‘qituvchi kimki xunarli bo‘lsa xayyotda qoqilmasligini, inson hayoti davomida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Ana shunday vaqda agar qo‘lida hunar bo‘lsa hunari orqasidan kun kechiradi, bo‘lmasa qiynalib qolishi mumkinligi tushuntiriladi. Shuning uchun kasbdan tashqari biror hunar egallasak va bu hunardan aql va tadbirkorlik bilan foydalansak hayotimiz davomida hych qiynalmay faravonlikda yashaymiz. Dars so‘ngida faol qatnashgan o‘qituvchilar rag‘batlantiriladi va 5 baxo qo‘yiladi.

Uyga vazifa: Ertakni o‘qish, maqollarni yodlash bo‘ladi.

II.2. Mehnat ta'limi bo'yicha to'garaklarda ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish usullari.

Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o'quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o'zagi, maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo'lidir. O'quvchilar mehnat ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir.

Maktabning turmush bilan aloqasi kundan-kunga mustaxkamlanib bormoqda, sinfdan tashqari ishlarning o'quvchilar o'zlarining mustakilliklari va tashabbuslarini namoyish eta oladigan, ularga jamiyat foydasi uchun tashkil etilgan mehnatning go'zalligi va quvonchini, jamoaning kuchini his etishlariga yordam beradigan yangi shakl va usullarlari aniqlanmoqda.

O'quvchilarning mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarda xilma-xil tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash orqali amalga oshirilishi kerak.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta'lim - tarbiyaviy ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u bolaning har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, amalda qo'llanishgaga yordam beruvchi muhim vositalardan biridir. Sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, mehnat ta'lim va tarbiyasi bolalarda fan texnika, san'atning turli soxalariga qiziqishini o'stirish masalalarini hal etishga yordam beradi.

Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar texnik mehnat darslarining davomi qo'shimchasidir. O'quv mashg'ulotlari bilimlarga qiziqishini o'zgaradi, sinfdan tashqari ish darsida bilimlarni kengroq qo'llash hamda chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishdarsda berilgan materiallarni aynan takrorlamasligi kerak, u sinfdagi ishdan o'zining o'yin, qiziqarli xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga ishning o'zlariga ko'proq yoqqan, o'zlarni ko'proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari yorqinroq

namoyon bo'ladi, bu yerda ular istalgan ish bilan shug'ullanishlari, qo'yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo'lgan vaqt va kuchini sarflashlari mumkin.

Sinfдан tashqari ishning formalar ko'pdir: Ommaviy ish - kechalar, ertaliklar, konkurslar, ekskursiyalar, ko'rgazmalar.

Maktablarda boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni ertaliklar, ko'rgazmalar tayyorlashni uyushtirish kabi ommaviy ish turlaridan keng foydalanib, konkurs va viktorinalarga kam e'tibor beriladi. Ommaviy ishning konkurs va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli va aynan bir vaqtda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadir. Chunki zehni, tez javob topa bilish, o'z fikri, bilim va ko'nikmalarini safarbar eta bilish xuddi mana shu ish turlarida talab qilinadi.

Maktabning tarbiyaviy ishlarida ommaviy ishlar katta rol o'ynaydi. Kechalarga, konkurslarga, viktorinalarga tayyorgarlik o'quvchilarni xar tomonlama xarakat qilishga matnlarni yodlash, kostyumlar tayyorlash, jixozlash, bezash ishlarini amalga oshirishga majbur qiladi. Kechalar mavzulari shunday tanlanish kerakki, u o'quvchilarda xar tomonlama qiziqish uyg'otsin, ularni o'ylashga, ixtiro kishiga majbur etsin va faqat mavjud bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmay, kecha mavzusining dasturiga muvofik yangiliklarni ham o'zlashtira borsin. Ayniqsa kechalar ikki yondosh sinflar qo'shilganda juda qiziqarli va jonli o'tadi. Kecha mavzusi asosan maqol va matallardan olinadi, ammo kecha mavzusini "Mehnat va mehnat kishilarini sharaflaydigan" mehnatga aloqador bo'lishi ham mumkin.

Mehnatga bag'ishlangan kechalarni har bir o'quv choragi va yil oxirida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kecha "Maktab mehnat darslarida nimalarni o'rganib oldingiz" mavzusi asosida o'tkazish mumkin. Kechaning maqsadi mehnat darslarida olingan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, mehnatga muxabbat singdirishdir.

Turli ishlarni bajarish, asboblarni tug'ri ishlatish, darslarda foydalaniladigan materiallar va asboblarni bo'yicha bilimlarni tekshirishga bag'shilangan musobaqalar sinfda va sinflararo o'tkazilishi mumkin. Ish turlarini, tayyorlash texnologiyasini aynan o'zini qoldirib o'zgartirish kerak. Hamma topshiriqlarni bajargan

o'quvchilarni maxsus nishon bilan taqdirlash mumkin. To'garak ishlarida ko'rgazmalar, mavzuli albomlar, ko'rgazmali qurollarni tashkil etish va bajarish muhim o'rin egallaydi.

Ko'rgazmalar mavzusi xilma-xil bo'lishi mumkin, masalan sinfda mehnat darslarida bajarilgan ishlar ko'rgazmasi, uyda mustaqil ishlagan yoki to'garaklarda ishlangan ishlar ko'rgazmasi va shu kabilar. Ko'rgazmani tomoshabinlar qanday idrok etishlari, ko'rgazmani qanday tashkil etilganligi, qanday bezatilganligini, namunalarning joylashtirishiga bog'likdir. Ko'rgazma estetik didni tarbiyalaydi. Boshlang'ich sinflarda to'garak ishi quyi sinf o'quvchilarini umumiy rivojlantirish, ayniqsa o'qishning turmush ishdan alokasi nuqtai nazaridan juda muhim va keraklidir. "Mohir qo'llar", "Kug'irchok teatri", "Yosh tabiatshunoslar" to'garaklari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lib, to'garaklarda o'g'il qiz bolalar bir xil qiziqish bilan shugullana oladilar. Xar biri o'z qiziqishi, kuchi va imkoniyatlariga yarasha ish bilan shug'ullana oladilar.

To'garaklarni tashkil etishdan oldin o'qituvchi maktabdagi mavjud imkoniyatlarni chamalab chiqishi lozim. To'garak uchun albatta alohida xona kerak bu xona stol-stullar, ma'lum asbob-moslamalar to'plami, tayyor ishlarni qo'yish uchun shkaflar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

To'garak ish rejasini to'garak rahbari sinf rahbarlari bilan hamkorlikda bir yilga tuziladilar. Rejada to'garak qaysi ish turi bilan shug'ullanishi va shu ish turlari bo'yicha qanday amaliy ishlar amalga oshirilishi qayd etiladi. Rejadagi ishlar oddiydan murakkabga o'tishini ta'minlash uchun murakkablik darajasiga ko'ra joylashtiriladi. Rejada o'tkaziladigan ekskursiya xam ko'rsatiladi.

To'garak rejasini maktab rahbari tasdiqlaydi. To'garak mashg'uloti haftada bir marta o'tkazilib, u 1,5 soatdan ortiq davom etmasligi kerak.

To'garak mashg'uloti odatda yangi ish usullarini ko'rsatishdan boshlanib, to'garak a'zolari bu harakatni takrorlaydilar, asosiy ishga esa ular bu ish usullarini yaxshi egallab olganlaridan so'ng kirishiladi. To'garak a'zolari ishlarni bajarish jarayonida oddiy sxemalar. chizmalardan foydalanishga, materiallarga tartibli, tejamkorlik

bilan munosabatda bo'lishga, asboblarni hamda ish joyini toza va tartibli saqlashga albatta odatlantirish zarur.

To'garakning har bir a'zosi "O'zing bilim oldingmi – o'rtog'ingga ham o'rgat" degan qoidani doimo yodida saqlashi kerak.

Individual mashg'ulot - kolleksiyalar to'plash, texnika bilan mustaqil shug'ullanish, qishloq xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanish kiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'plab ijtimoiy foydali mehnatda qatnashadilar. Ular paxta terishda, sabzavot mevalarni yig'ishda, ipak qurti boqishda, maktabni, maktab hovlisini, ko'cha xiyobonlarni obodonlashtirishda qo'llaridan kelgancha harakat qiladilar. Ular dala shiyponlarida kutubxonalar tashkil etadilar, xavaskorlik konsertlarini beradilar, makulatura, temir-tersak to'playdilar, kichkintoylarni, nafaqaxo'rlarni otaliqqa oladilar. Bu tadbirlarni barchasi o'quvchilar tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Biz ko'p narsalarni o'rganishni faqat dars vaqtida bajara olamiz, qilgan vaqtimizda ham ulgura olmaymiz. Shuning uchun sinfdan tashqari olib borgan ishlarimiz katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning qiziqishlariga, qobiliyatlariga qarab turli xil ishlarni amalga oshirishimiz mumkin. Bajarylган ishlarimizni ahamiyati haqida tushuntirilib borilsa, yaxshi natijalarga olib keladi.

Mehnat topshiriqlarini sinfdan tashqari ishlarda qo'llash o'qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta to'garak

ishlarini doimo nazorat qilib, ularni chuqur va mastahkam bilimlar bilan qurollantirib, tanlagan ijodkorlikga qiziqtirib va o'quv fanlari mazmunini mujassamalashtirib o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish kerak.

Sinfdan tashqari ishlarni samarali ravishda amalga oshirish,

Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan bilim, malaka va ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi, ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi hamda badiiy estetik didini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'z vaqtida, rejali, tartibli o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqish va havaslarini oshiradi, ma'naviy, mafkuraviy qarashlarini boyitadi,

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarga boshlang'ich sinfdanoq' kelajakda to'g'ri ijodkorlik tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, kelajak-avlodning barkamol bo'lishida, jamiyatimizning rivojlanishida kata ahamiyat ijodkorlik kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi mazmunini milliy an'analar va qadriyatlarimiz, Respublika xududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog'ini kengaytirish, zamon talablari darajasida isloh qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir .

O'quvchilarning qiziqish, ijodiy sifatlarini o'rganish uchun

TEST-ANKETA

_____ tuman _____ maktab _____ sinf

O'quvchi F.I.Sh. _____

To'garak nomi _____ sana _____

№	O'quvchining ijodiy sifatlarini belgilovchi omillar	Ball
1	2	3
I	Qanday baholarga o'qiyapsiz?	
2.1	«3» baxoga	1
2.2	«4» baxoga	2
2.3	«5» baxoga	3
III	Qaysi to'garaklarga a'zo bo'lgansiz?	
3.1	Texnika ijodkorligi to'garaklari	2
3.2	Fan to'garaklari	1
IV	Qaysi ijodkorlikga qiziqasiz?	
4.1	Texnika	2
4.2	Xizmat ko'rsatish	1
V	Fan olimpiadalarida ishtirokingiz?	
5.1	Maktab	1
5.2	Tuman	2

5.3	Viloyat	3
5.4	Respublika	4
VI	Ijtimoiy kelib chiqish?	
6.1	Ziyoli	3
6.2	Ishchi	2
6.3	Xizmatchi	1
VII	Qaysi fanga qiziqasiz?	
7.1	Matematika	3
7.2	Tabiiy fanlar	2
7.3	Boshqa fanlar	1
VIII	Qanday narsalar yasashga qiziqasiz?	
8.1	Mashina mexanizmlar	2
8.2	Oddiy buyumlar	1
IX	Narsa yasashingizga kimdan ko'proq maslaqat olgansiz?	
9.1	O'qituvchidan	2
9.2	Ota-onamdan	1
X	Siz shu vaqtgacha qanday maketlar yasadingiz?	
10.1	har-xil mashinalar	2
10.2	Oddiy buyumlar	1

Ijodkorlik tanlash bo'yicha o'quvchida yuz berayotgan o'zgartirishlarni diqqat bilan kuzatib borish mutaxassislar va sinf rahbarining asosiy burchidir. Yuz bergan o'zgarishlar va kuzatishlar asosida xulosa chiqarib, tavsiyalar tayyorlansa, o'quvchi uchun kelgusida ijodkorlik tanlashga yaxshi metodik yordam bo'lar edi.

Ta'lim muassasalarida bolalarning ijodkorlikga qiziqishini tarkib toptirish uchun mehnat ta'limining noan'anaviy usullaridan foydalanish darkor. Ushbu usullardan foydalanib, o'quvchilarning ijodkorlikga qiziqishi mustaxkamlanadi.

Boshlang'ich sinf «Yosh duradgor» to'garagining kalendar taqvim rejasi mavzular mazmuni soddalashtirilib beriladi.

№	Mavzular nomi va mazmuni	<i>Mustaqil o‘rganish uchun mavzular</i>
1.	Kirish. O‘quvchilarni to‘g‘arak rejasi bilan tanishtirish. O‘quvchilarning xoxish-istagini inobatga olgan holda to‘g‘arak rejasini tuzish, tanishtirish. Dastlabki ijodkorlikga qiziqishga oid tashxis o‘tkazish.	O‘zbekiston Respublikasi tabiiy geografik iqlimi va o‘simliklar olami
2.	Yog‘ochning tuzilishi va turlarini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Duradgorlikda keng qo‘llaniladigan yurtimizda o‘sovchi daraxt turlari. Daraxtlarni parvarish qiluvchi ijodkorliklar to‘g‘risida tushuncha.	Bog‘bon, o‘rmonchi kabi ijodkorliklar xususiyatlarini o‘rganish asosida ijodkorlik tavsifnoma tayyorlash
3.	Yog‘ochga ishlov berishda ishlatiladigan duradgorlik dastgohlarining tuzilishi va ulardan foydalanish qoidalari. Duradgorlik dastgohlarida yog‘ochdan mashg‘ulotlar tayyorlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar.	Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida yog‘ochga ishlov berish sohasidagi ilg‘or texnologiyalar
4.	Arra, iskana, randa turlari xususiyatlarini amaliy o‘rganish. Arralar, iskanalar, randa vositasida bajariladigan mehnat jarayonlari va ularni bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish. Ish asboblariidan foydalanishda amal qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari	Inson hayoti xavfsizligini saqlash borasidagi qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash

	Xalq hunarmandchiligi to'g'risida tushuncha.	
5.	Maktab stul va mebellarini ta'mirlash. Maktabda yaroqsiz qolgan kelgan stul va mebellarni ta'mirlash. Laklash va bo'yash usullari. Duradgor, bo'yoqchi, dizayn ixtisosligi oid tushunchalarni shakllantirish.	Milliy xalq - hunarmandchiligining noyob namunalari to'g'risida ma'lumotlar to'plash va referat tayyorlash
6.	Duradgorlik va yog'ochga ishlov berish bilan bog'liq «Odam-tabiat» va «Odam-texnika» ijodkorlik turlari to'g'risida tushunchalar. Ijodkorlikni to'g'ri tanlashning inson hayotidagi ahamiyati.	Mahalliy hududda mavjud bo'lgan duradgorlik va yog'ochga ishlov berish bilan bog'liq ijodkorliklar ro'yxatini tayyorlash
7.	Ishlab chiqarish korxonalari, duradgorlik ustaxonalari, ta'lim muassasalari (kollejlari, oliy o'quv yurtlari) bilan tanishish. Mahalliy xududda joylashgan korxonalar, oliy o'quv yurtlari, ijodkorlik-hunar kollejlari mavjud yog'ochga ishlov berish texnologiyalari, korxonalarda, ijodkorlik-hunar kollejlari mavjud bo'lgan hunarlar tasnifi bilan tanishtirish.	«Men tanlagan kollej (litsey)» mavzusida ma'ruza tayyorlash
8.	Yog'ochdan kursi tayyorlash. Kursi tayyorlashga oid texnologik kartalar ishlab chiqish. Kursi uchun material tanlash va birlashtirish jarayonlarini bajarish. Tayyor kursiga pardo berish.	Atrofdagi mashina va buyumlarda mavjud turli qimmat detallarni yog'och bilan almashtirishga oid takliflar tayyorlash
9.	Qiziqishlar kartasini to'ldirish. O'quvchi-	O'quvchi o'zi tanlagan

	larning javoblari natijalari bo'yicha suhbat. O'quvchilarni qaysi ijodkorlikga qiziqishini aniqlash uchun qiziqishlar kartasini to'ldirish orqali ijodkorlik turlari turkumlari aniqlanadi.	ijodkorligi bo'yicha ota-onasi bilan suhbat o'tkazish va hisobot tayyorlash
10.	Mehnat faxriylari bilan uchrashuv. Mahalliy hududni ishchi ijodkorliklari bilan ta'minlash maqsadida yaqin atrofdagi korxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan yoki nafaqada bo'lgan mehnat faxriylari, O'zbekiston Qaqramonlari bilan uchrashuv o'tkazish.	O'quvchi tanlagan ijodkorlik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ilg'or mutaxassislar to'g'risida ma'lumot to'plash
11.	To'garak ixtisosligiga oid ishlab chiqarish korxonasiga ekskursiya uyushtirish. hududda joylashgan korxonalarga ekskursiyalar tashkil etib, o'quvchilarni har xil ijodkorliklar bilan tanishtirish.	Ekskursiya uyushtirilgan korxona to'g'risida ma'lumot to'plash
12.	To'garak a'zolari tomonidan yog'ochga ishlov berishga oid o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijodkorlik elementlariga ega bo'lgan buyum tayyorlash. Buyumlarga ishlov berish, pardoqlash.	Taklif etilayotgan ijodkorlik mahsulotini iqtisodiy jihatdan asoslash
13.	Yakunlovchi mashg'ulot. To'garak a'zolarining aniqlangan ijodkorlikga moyilliklariga ko'ra tavsiyalar. Ijodkorlik tanlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan (axborot-larni tahlil qilish, diagnostik, konstruktiv, tashkiliy ko'nikmalar) to'g'risida	Tanlagan ijodkorlik bo'yicha ta'lim beruvchi o'quv yurtlari ro'yxatini ishlab chiqish

	tushunchalar.	
--	---------------	--

«tikuvchilik» to'garagining kalendar taqvim rejasi

№	Mavzular nomi va mazmuni	<i>Mustaqil o'rganish uchun mavzular</i>
1.	Kirish. To'garak rejasi bilan o'quvchilarni tanishtirish. Ijodkorlikga qiziqishga oid dastlabki tashxis o'tkazish.	O'zbekiston Respublikasi tabiiy geografik iqlimi
2.	Tabiiy tolalar, gazlamalar va sun'iy gazlamalar, ular- ning xususiyatlari. Ipak, paxta tolasi, su'niy tolalarning olinishi, ularning tuzilishi, sifat ko'rsatkichi haqida tushuncha. himoyalovchi tolalar va ularning asosiy xossalari.	O'zbekistonning tabiiy o'simliklar olami haqida materiallar to'plash
3.	Kul ishlarini bajarishda ishlatiladigan asbob uskunalar xavfsizlik texnikasi qoidalari. Tikuvchilikda ish-latiladigan asboblari, igna, qaychi, angishvona, tikuv ma- shinasini xususiyatlarini amaliy o'rganish. «Tikuvchi- lik» texnologiyalari ahamiyati.	Tikuvchilik texno- logiyasining hozirgi kundagi rivoji tikishga oid takliflar tayyorlash
4.	Kul choklaridan namunalar tikish. Tepchima chok bilan chetlarini tikish, bosma, baqya, chetlarini yo'rmali, petlya choklari yordamida yengil kiyim tikish. Kul ishlarini bajarish va sxemalarini chizish.	Zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlanayotgan kiyimlar to'g'risida ma'lumotlar to'plash
5.	Inson-texnika, Inson -tabiat ijodkorlik turlari to'g'risida	Mahalliy xududdagi ilg'or tikuvchilik

	tushuncha. Ijodkorlikni to'g'ri tanlashning inson hayotidagi ahamiyati. Men tanlagan ijodkorlikning qiziqarli jihatlari.	ishlarida namunalari yig'ish
6.	Dazmol bilan ishlash, namlab isitib ishlashning zamo- naviy usullar qaqida tushuncha. Namlab isitib ishlash uskunalari va moslamalari.	Zamonaviy tikuv mashinalari haqida ma'lumot to'plash
7.	Tikuv mashinalari asosiy qismlari va tuzilishi. Ma- shinada bajariladigan ish uchun ish o'rnini tashkil etish.	Mashina chok turlari. hozirgi zamonaviy tikuvchilik qo'shma korxonalari haqida ma'lumot.
8.	O'zbek milliy kashtachiligi. Kashta bezaklari. Real tas- virlar asosida kashta naqsh unsurlarini ishlash.	O'zbekistonda kashtachilikning rivojlanishi, uning turmushimizda o'rni va ahamiyati, mavjud tayyorgarlik
9.	Ijodkorlikga oid test so'rov o'tkazish. Qiziqishlar kartasini to'ldirish, o'quvchilarning javoblari natijalari bo'yicha davra suhbatini o'tkazish. Ijodkorlik tiplari, turkumlari aniqlanadi.	O'quvchi o'zi tanlagan ijodkorligi bo'yicha ota-onasi bilan suhbat o'tkazish va hisobot tayyorlash
10.	Mohir tikuvchilar bilan uchrashuv. Mahalliy xududni mohir tikuvchilari, yaqin atrofdagi korxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan yoki nafaqada bo'lgan mehnat fax- riylari, O'zbekiston Qaxramonlari bilan uchrashuvlar o'tkazish.	O'quvchi tanlagan ijodkorlik sohasida ilg'or mutaxassislar to'g'risida ma'lumot to'plash

11.	Yostiqcha quroq tikish usullari. Yostiqcha quroq tikish uchun materiallarni tanlab, bezaklarni to'g'ri tanlash, quroqni ketma-ketlikda tikish. Ayollar ustki kiyimlarini tikish.	Taklif etilayotgan ijodkorlik mahsulotini iqtisodiy jihatdan asoslash
12.	To'garak ixtisosligiga oid ishlab chiqarish korxonalari va muassasalariga ekskursiya tashkil etish. Yaqin atrofdagi fabrika, universitet, akademik litsey va ijodkorlik-hunar kollejlari ekskursiya uyushtirish. Nazariy bilimlarini amaliy o'rganish.	Tanlangan ijodkorlik bo'yicha ta'lim beruvchi o'quv yurtlarini ro'yxatini ishlab chiqish
13.	Ijodkorlikni tanlashda o'z qobiliyatini va irodasini rivojlantirish. Konstruktiv ko'nikmalar, yani o'quvchi tomonidan ijodkorlik tanlashga doir shaxsiy rejaning mazmuni, bo'limlari va vazifasiga asoslanish, ijodkorlikga tayyorgarlik va ijodkorlik mahoratini oshirish usullarini egallash.	«men tanlagan ijodkorlik» mavzu bo'yicha fotosuratlardan albom tayyorlash
14.	Mehnat unumdorligining oshirishning omillari. Tejamkorlik va ishbilarmonlik faoliyati, biznes, iqtisodga oid atamalar ma'nosini bilish.	Tejamkorlikka oid, iqtisodga oid adabiyotlar bilan tanishish
15.	Yakunlovchi mashg'ulot. To'garak a'zolarining aniqlangan ijodkorlikga moyillik, aniqlangan ijodkorlikga moyilliklariga ko'ra tavsiyalar.	o'quv yurtlari ro'yxatini ishlab chiqish

Ma'lumki, ta'lim tizimi jamiyatda shakllangan muayyan ehtiyoj asosidagi ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo'naltiriladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlaridan biri jamiyatning barcha sohalari, jumladan, ijodkorlik egallashdagi raqobatning paydo

bo'lishidir. Ijtimoiy raqobat bu taqlidda mavjud bo'lishi mo'tadil faoliyat yuritish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish, raqobatchilarga nisbatan yuqoriroq mavqei uchun kurashishga zamin yaratadi. Shu bois fuqarolarda ta'lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik egallashga nisbatan ongli yondashuv hissi qaror topmoqda. Bu esa ularda jamiyat ehtiyojlari asosida ijodkorlik tanlashga bo'lgan rag'batni qosil qilmoqda. Endilikda ta'lim olish, muayyan ijodkorlik-hunar yoki mutaxassislik ma'lumotlarini egallash, bu borada ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat va uning mazmuni ijodkorlik egallash jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishida kafolat bo'la oladi.

Shaxsiy va jamiyat ehtiyojlariga asoslangan holda ijodkorlik tanlashga yo'naltirish o'quvchi hamda o'qituvchi munosabatlari, ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil qilishda muhim ahamiyat ijodkorlik kasb etadi. Yaqin o'tmishda ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o'zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni namoyish etuvchi sub'ekt sifatidagi o'zni bilan kifoyalangan bo'lsa, ta'lim texnologiyasi talablariga ko'ra ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining yetakchi sub'ekti, asosiy ijrochisi sifatida ko'rinadi. Endilikda ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi, balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, ta'lim beruvchi nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. Ta'lim oluvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini ximoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z -o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda .

O'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- 1) o'quvchida bo'lajak ijodkorligi to'g'risidagi bilimlarni va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish;
- 2) ijodkorlik tanlashga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish;
- 3) mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- 4) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, ular borasida xulosalar chiqarish, umumlashtirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tadbqiq etish ko'nikmalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish;
- 5) o'z-o'zini nazorat qilish, qiyosiy baholash, tahlil qilish sifatlarini shakllantirish.

O'quvchilarni ijodkorlik tanlashga yo'naltirishda ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Zero, ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim, ko'nikma va malakalarini bo'lajak faoliyat sohasi talablari asosida shakllantirish uchun shart-sharoit yaratib beradi. O'z navbatida o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, noan'anaviy ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun turtki bo'ladi.

Ta'lim jarayonining maqsadi DTS, o'quv rejasi, dasturi, shuningdek, darslik, qo'llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda mashg'ulot turining o'ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishlari, o'qituvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati va hakozi omillarni inobatga olish asosida belgilanadi.

O'quv jarayonining maqsadi aniq hamda ravshan belgilanmog'i lozim. Ta'lim maqsadining bunday belgilanishi ma'lum va amal qilingan vaqtda didaktik jarayonni tashkil qilish va amalga oshirilish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Maqsadning belgilanishi quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

a) shaxsda shakllantirilgan ma'naviy-axloqiy sifatlar, aqliy salohiyat hamda shaxsiy sifatlari shu darajada aniq va ravshan tavsiflanadiki, natijada ularni ijodkorlik tanlashga yo'naltirish ishida aniq metod va vositalarni tanlash mumkin bo'ladi;

b) shaxsning tashxislangan ma'naviy-axloqiy va aqliy-ijodkorlik sifatlarining shakllanganlik darajasini haqqoniy nazorat qilishga yo'naltirilgan aniq usullar mavjud bo'ladi;

v) shaxsning tashhislangan sifatlarini aniqlash yuzasidan olib borilgan nazorat natijalari asosida uning samaradorligini aniqlash mumkin bo'ladi;

g) o'lchov mezonlari asosida muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning sifatini baholash ko'rsatkichlari mavjud bo'ladi.

Ta'lim jarayonining maqsadini shakllantirish ijtimoiy buyurtma mazmuni hamda ta'lim oluvchi shaxsi modellarining o'zaro muvofiqligi asosida kechadi.

Bosqichli ta'lim maqsadini shakllantirish dolzarb darajadagi maqsad muayyan ijodkorlik tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha taqsimlab chiqiladi. Ta'lim tizimining yaxlit holda ijodkorlikga yo'naltirilganligi sababli ta'lim oluvchi shaxsining modeli uning ob'ekti bo'lib qoladi. Ta'lim jarayonida shaxsning yosh ko'rsatkichlari tabiiy shakllanishi bosqichlariga mos ravishda asosiy maqsaddan kelib chiqish asosida darajalab chiqiladi.

Tezkor daraja ta'lim maqsadini shakllantirishning mazmuni mashg'ulotlar mazmunini tashkil etuvchi alohida yo'nalishlarni o'rganishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayonining mazmuni ta'limning umumiy maqsadini amalga oshirish, xususiy maqsadlarga bosqichma-bosqich erishish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim mazmuni ta'limiy-me'yoriy hujjatlar talablari, o'quv manbalari (DTS o'quv rejasi, dastur, darslik va qo'llanmalar)ning mazmuni, ularda ilgari surilgan g'oyalar asosida ishlab chiqiladi. Ta'lim jarayonining mazmuni shaxsga ta'lim berish, uni tarbiyalash va rivojlantirish kabi vazifalarning ijobiy hal etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonining mazmuni asosida ta'limning shakl, metodi (suhbat, anketa-test so'rovnomalar, ma'ruza matnlari va boshqa) va vositalari

belgilanadi. Bu jarayonda ta'lim shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni ijodkorlik tanlashga yo'naltirish, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni hosil qilish ishiga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq tashkil etiladigan faoliyatlarining tashqi ifodasidir.

O'quvchi yoshlarning darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ijodkorlik-hunar tanlashga qaratilgan faoliyati o'quvchilarning ijodiy xususiyatlari va bosqichlariga mos ravishda tashkil etiladi. Mehnat darslari o'quvchilar, avvalo, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga oid boshlang'ich ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari shart. Misol uchun, o'quvchi texnik yo'nalishdagi to'garakka ilk bor qatnashib birinchi o'quv yilida quyidagilarni bilishi kerak:

- qog'oz, karton, fanera, kley, qaychi bilan ishlashni;
- ob'ektlarni konstruksiyalash bo'yicha ushbu materiallardan foydalana bilishni;
- turli xildagi andozalarni qo'llashni, hajmiy figuralar va o'lchov tekshiruv asbob-uskunalaridan foydalana olishni.

Shunga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tilayotgan boshlang'ich texnik modellashtirish to'garagida bolalar texnik ijodiyoti faoliyati shakl va mazmun jihatidan xilma-xil bo'lishi kerak.

Ilmiy-texnik ijodiyotning asosiy yo'nalishlari esa quyidagilar: texnik modellashtirish; o'quv predmetlari bo'yicha (fizika, ximiya, matematika) to'garaklarda fan asoslarini chuqur egallash; sportning harbiy-texnik mutaxassislari ijodkorliklarini tanlash. Ushbu yo'nalishlarni takomillashtirish asosan, olimpiada, ko'rgazma, tanlov, musobaqa va baxslar o'tkazish bilan amalga oshiriladi.

Texnik ijodiyot markazlarida tashkil etilgan elektronika, kosmik modellashtirish to'garagida qatnashib birinchi o'quv yilini tugatgan to'garak a'zolari radioelektronika, radiotexnika to'garasida boshlang'ich tassurotlarga, oddiy qog'ozdan raketalarni yasashni, raketasozlik va uning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni bilishlari shart.

Mashg'ulotlarning qayd etilgan turiga qatnashgan o'quvchilar keyingi o'quv yillarida quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart:

- qishloq xo'jaligining turli sohalarida ishlaydigan mashina hamda mexanizmlarni konstruksiyalash va modellashtirish;
- elektron hisoblash texnikalarini dasturlashtirish;
- ularni o'z faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash.

Mashg'ulotlarning barcha yo'nalishlaridagi o'quvchilarning ma'naviy fazilatlari, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqbol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanishi bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, to'garaklar faoliyatida Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tarixi, muayyan davrlardagi mavqei, buyuk mutafakkirlarimizning Jahon fan va madaniyati sohasidagi o'rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to'g'risida ma'lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg'urish iymon-e'tiqod ramzi ekanligi uqtiriladi. Shu nuqtai nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi. O'qituvchi va tarbiyachilar darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga quyidagi bilim hamda ko'nikmalarni singdiradilar:

- ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy xislatlar majmui mujassamlashtiriladi;
- jamiyatda o'zligini va o'z iste'dodini har tomonlama namoyon etadi;
- ma'rifiy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallaydi;
- aqlan yetuk, yuksak qobiliyatli va kuchli salohiyatga ega bo'lgan barkamol shaxsga aylanadi;
- axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin ijodkor shaxs darajasiga intiluvchi bo'ladi.

Mashg'ulotlar mazmunini belgilashda yana quyidagi tadbirlar ishlab chiqilishi e'tiborga olinadi:

- darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida yoshlar iste'dodi va iqtidorini namoyon qilishga doir shart-sharoitlar yaratib berish;

- ularning qiziqishini inobatga olgan holda fanlar bo'yicha olimpiadalar, tanlovlar, ko'rgazmalar, turli bayramlar, bolalar ijodkorligi kabi tadbirlarni o'tkazish.

UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR.

Umumiy o'rta ta'lim makatblarida mehnat ta'limi mashg'ulotlari negizida ma'naviy, milliy, madaniy, moddiy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligining turli yo'nalishlarini o'rganish va yoshlarga o'rgatish ishlarining yo'lga qo'yilishi ushbu sohalarning didaktik, tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Darsdan va maktabdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokozolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirishning mazmuni, uning o'rnini va ahamiyati aniqlandi.

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirishning mazmuni yoritib berildi.

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirishga oid rejalari tavsiya etildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'g'arak mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning omillari asoslanganligi; o'z ifodasini topgan.

Tavsiyalar qilib shuni aytish mumkinki, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy-amaliy ishlarini tashkil etish o'ziga xos murakkab pedagogik va psigologik jarayon bo'lib, xususiyatlarni hisobga olish kerak:

1. O'quvchining ijodiy-amaliy faoliyatini tashkil etishda ularning yoshi, bilim darajasi va mehnat ko'nikmalariga to'g'ri keladigan ishlarni tanlash, shularga mos keluvchi buyumlarni yasash kerak. Shu bilan birga bir xil yoshdagi o'quvchining jismoniy va aqliy xususiyatlardagi farqni ham hisobga olish zarur.

2. Ijodiy-amaliy ishlarda o'quvchiga kelajakda ishlatsa bo'ladigan, ularning ma'lum bir ehtiyojini qondiradigan yangiliklarni tayyorlash zarur.

3. O'quvchini tezda ijodkorlikka o'rgatib bo'lmaydi. Balki ularga yangilik kiritish ishlarini bardoshlilik va mohirlik bilan oz-ozdan, asta-sekin, bosqichma-bosqich o'rgatib borish kerak.

4. Ish davomida o'quvchi tomonidan bildirilgan takliflarni, amalga oshirilgan ishlarni, ayniqsa, yangiliklarni o'z o'rnida izohlab borish kerak.

5. O'quvchiga ijodkorlik oson ish emasligini, buning uchun boshqa fanlar bo'yicha ham bilimlar zarur bo'lishini uqtirib borish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. – "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. – T.: Sharq, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. – T.: Sharq, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.- T.: "O'zbekiston", 2009.- 40 b.
4. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili.
– T.: O'zbekiston. 1995. -23 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston. 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: O'zbekiston. 1999.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.: Xalq merosi. 1993. - 224 b.
8. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (ibratli so'zlar). - T.: Fan. 1993.
9. Andrianov P.N. Maktab o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish O'quvchilarning texnik ijodkorligi. - T.: O'qituvchi. 1989-128 b.
10. Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish . Chimkent. 1993.
11. Amaliy psixologning ish kitobi. g'g' U.A. Yo'ldoshev, M. Po'latova, Z. Koraev, I. Aripov. Navoiy. 2000. - M.: 1987. - 18 s.
12. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o'rgatishning milliy-an'anaviy asoslari-(metodik tavsiyanoma). - T.: R.M. 1999. - 20 b.
13. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.- T.: Mehnat. 2001. - 384 b.
14. Vorobyov A.I. Mehnat ta'limi va ijodkorlik tanlashga yo'naltirish metodikasi. - T.: O'qituvchi. 1980. - 208 b.
15. Davlatov K.D., Chichkov V.A. O'quvchilarni ijodkorlik tanlashga yo'naltirish. - T.: O'qituvchi. 1978. - 144 b.
16. Magzumov P.T., Ruzmetov F. Formirovanie u uchaqixsya potrebnosti v trudovoy deyatelnosti. 1991. -84s.
17. Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. - T.: O'qituvchi. 1986.
18. Mavlonova R. Mehnat 3-sinf o'quvchilari uchun darslik. - T.: Mehnat. 1993.

19. Mavlonova R. Mehnat. 4-sinf o'quvchilari uchun darslik - T.: Mehnat. 1995.
20. Mazur V.A., Davidova L.G. Milliy hunarmanchilikka o'qitish jarayoni va uni tashkil qilish (metodik tavsiyalar, ruschadan B. Raximjonov tarj.) - T.: NIIPO. 1996. -18 s.
21. Maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablari g'g'O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar J.Fozilov, V.Sultonov, h .Saidov. T.: Ma'rifat - Madadkor. 2000.-135-149 b.
22. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). (Mas'ul muharrir: M.M.Xayrullaev).-T.:Xalq merosi nashr . 1999.
23. Mehnat ta'limi metodikasi (D.A.Txorjevskiy taqriri ostida). T.: O'qituvchi. 1987.- 80b.
24. Mehnat ta'limidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. Ta'lim taraqqiyoti. IV maxsus son. 1999.
25. Mehnat ta'limidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun dastur. Dastur. Ta'lim taraqqiyoti. IV maxsus son. 1999.
26. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- T.: O'zbekiston. 2001.
27. Pedagogika. g'A.Q.Munavvarovning umumiy taqriri ostida. -T.: O'qituvchi. 1996. - 200 b.
28. Popov G.X. O'quvchining shaxsiy ishini tashkil etish. - T.: O'qituvchi. 1992. - 168 b.
29. Razumovskiy V.G. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish. - T.: O'qituvchi. 1978. 285 b.
30. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi g'g' O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar J.Fozilov, V.Sultonov, Saidov. T.: Ma'rifat-Madadkor. 2000 y. 101-135 b.
31. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati. g'g' J.Xalq ta'limi .-1999.-№ 1.-97-102 b.
32. Sayidaxmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. T.: Yangi asr avlodi.2001.- 40 b.

33. Tolipov O'. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar. g'g' J.Xalq ta'limi. № 2-3. 1999. 63-67 b.

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

34. Bob kizlik. Lesson Planning, Lesson Plan Formats and Lesson Plan Ideas..
www. ADPRIMA com.
35. Okolelov O.P. Distansionnoe obuchenie: suhnost, didakticheskie osobennosti
texnologii. http: // www. lipetsk. ru / legi
36. <http://www.bilimdon.uz>
37. <http://www.ziynet.uz>

MUNDARIJA

	Kirish.....	3-7
I-BOB.	Boshlang'ich ta'lim mazmuni va unda mehnat ta'limi darslari.	
I.1.	DTS lari va o'quv rejalari asosida mehnat ta'limi darslarini rejalashtirish mazmuni	8-17
I.2.	Boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarning mavjudlik xolati.....	17-31
II-BOB.	Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirishning shakl va usullari.	
II.1.	O'quv mashg'ulotlari orqali ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish shakllari.	32-54
II.2	Mehnat ta'limi bo'yicha to'garaklarda ishlab chiqarishga oid tushunchalarni shakllantirish usullari.	55-72
	Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	73-74
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	75-77